

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

SALAXIDINOV ISLOM ISMATOVICHNING

**«SIYOSIY PSIXOLOGIYANI O‘QITISH
ORQALI TALABALAR DUNYOQARASHINI
O‘STIRISH USULLARI»**

mavzusidagi

5210200 – Psixologiya(faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

kat.o‘q.M.Sulaymonov

Bitiruv malakaviy ishi psixologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning
2018-yil ___-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi
(bayonnoma № ___).

Kafedra mudiri:

dots.M.Salaxutdinova

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2018-yil ___ iyundagi majlisida himoya
qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma № ___).

YaDAK raisi:

A‘zolari:

SAMARQAND -2018.

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. SIYOSIY PSIXOLOGIYANING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI.

I.1.Siyosiy psixologiyaning nazariy metodologik asoslari.5-11

I.2.Zamonaviy ijtimoiy siyosiy fenomenlar psixologiyasi..... 12-16

I.3.Siyosiy jarayon va etnopsixologik xususiyatlari.17-24

II-BOB. TALABALARGA JAMIYATDAGI SIYOSIY XULQ- ATVORNING O'ZIGA XOSLIGINI ANGLATISH.

II.1.Ommaviy tUSDagi xulq-atvor..... 25-45

II.2.Siyosiy hokimiyat siyosiy psixologiyaning asosiy obykti sifatida..... 46-57

II.3. Siyosiy jarayonda ta'sir etishning individual uslublari.58-64

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Konstitutsiya qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Bugun hayotimizning o'zi Konstitusiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb masala qilib qo'ymoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun eng avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqat qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak" deya ta'kidladilar. Ma'lumki mamlakatimiz hayoti, kelajagi uchun ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik rejalar belgilab berilgan.

Jumladan, mazkur ma'ruzada siyosiy madaniyat va uni yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy bosh vazifalar ham belgilab berildi va siyosiy madaniyat omilini har tomonlama rivojlantirishdan ko'zlangan yangi strategik maqsadlar ilmiy jihatdan yanada aniqroq asoslandi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqida "odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarurligini " haqida fikr bildirgan.

Shuningdek, Prezidentimiz "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin" nomli asarida "milliy siyosiy madaniyat, o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishini" ham alohida ta'kidlab o'tgan.

Siyosatshunoslik fanida siyosiy psixologiya kelajagi porloq soha sifatida XX asr o'rtalarida e'tirof etilgan bo'lsa ham u rasman oradan bir necha o'n yilliklar o'tgach tan olina boshlandi. Siyosiy psixologiya turli siyosiy tuzumlarda o'ziga xos tarzda paydo bo'lgan va rivojlangan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Talaba shaxsning eng muhim ijtimoiy-siyosiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi siyosiy psixologiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi, talaba shaxsning eng muhim ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi siyosiy psixologiyaning muhim xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishdan iborat

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi.

1. Mazkur bitiruv malakaviy ish siyosiy psixologiyaning amaliy-tatbiqiy sohasi bo'lgan psixologik metodlarini psixologik amaliyotga joriy etishda mavjud muammolarni hal etishga xizmat qilishi mumkin.

2. Siyosiy psixologiyaning psixologik xususiyatlarini to'g'ri anglash uchun talaba shaxsini turli psixologik vaziyatlarga qo'yish va muammoning yechimini siyosiy ong orqali hal etishga o'rgatish yaxshi samara berishi ehtimoli mavjud.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadiga erishish va ilgari surilgan ilmiy farazni asoslash maqsadida ishni tizimli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni tahlilni amalga oshirish;
- tadqiqot metodikalarini tanlash va asoslash;
- siyosiy psixologiyaning ijtimoiy-psixologik axamiyatini yoritib berish;
- zarur ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishda siyosiy psixologiyaning eng muammoli jihatlarini ishlab chiqish;
- zarur kasbiy va ijtimoiy malakalarni egallashda siyosiy psixologiya imkoniyatlaridan foydalanib shu soha bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishda qo'llanilgan metodikalar.

1. Kuzatish metodi yordamida tajriba guruhidagilarda siyosiy psixologiyaning mazmun mohiyatini tushunganligi va to'g'ri his etishi to'g'risida ma'lumot to'plash.

2. "Refleksiya" testi yordamida tajriba guruhidagilarning refleksiv xususiyatlarini aniqlash

3. A.Bass va I.Darkning "Agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlari"ni diagnostika qilish metodikasi orqali sinaluvchi o'quvchilarning agressiyaga moyillik darajasini aniqlash

4. Siyosiy psixologiya dasturi yordamida psixologik trening tashkil etish va natijalarni tahlil qilish

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi.

Siyosiy psixologiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari fakultetimiz psixologiya yo'nalishida birinchi marta bitiruv malakaviy ish darajasida o'rganildi. Talaba shaxsning ijtimoiy zarur fazilatlaridan; siyosiy ong, muloqotmandlik va boshqa xususiyatlarning shakllanganlik darajasi diagnostika qilindi va ularni rivojlantirishga mo'ljallangan siyosiy qarashlar tizimi yaratildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati.

Tadqiqot ishida siyosiy psixologiya va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari muammosining nazariy tahlilida keltirilgan ijtimoiy-psixologik fikrlar yuzasidan to'plangan materiallar umumiy psixologiya, itimoiy psixologiya, psixodiagnostik, psixokorreksiya, sosial trening va amaliyot sohalarini nazariy jihatdan boyitishga va talaba-yoshlarning siyosiy ongini o'stirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ishda qo'llanilgan diagnostik metodikalar siyosiy psixologiyaning o'ziga xos tizimi amaliy psixologlarning shaxsda zarur ijtimoiy fazilatlarini, siyosiy ongni zudlik bilan shakllantirish bo'yicha faoliyatlariga tatbiq etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlardan tuzilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi, ilgari surilgan ilmiy faraz, vazifalari, tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar, yangiligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati haqida qisqachi ma'lumotlar berilgan.

I-BOB.SIYOSIY PSIXOLOGIYANING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI.

I.1.Siyosiy psixologiyaning nazariy metodologik asoslari

Siyosiy psixologiyaning nazariy-metodologik va amaliy asoslarining shakllanishiga jamiyatshunoslik fanlari sohasiga kiradigan –tarix, falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik (politologiya), psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan g'oyalar, ilmiy mulohaza va xulosalar juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Bunda eng avvalo tarixiy mazmundagi ishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda mashhur shaxslarning tarixiy-siyosiy jarayondagi xulq- atvori o'rni tahlil qilib berilgan. So'ngra Platon, Aristotel, Makiavelli, Gobbs, Kant, Gegel va boshqalarning siyosiy-falsafiy asarlari ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga sosiologiya va psixologiyadagi N.A.Berdyayev, A.A.Bodalev, M.Veber, M.M.Kovalevskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, G.Tard, E.Fromm, Z.Freyd va boshqalarning yetakchilikning psixologik tavsifi, siyosiy faollik haqidagi ishlari alohida o'rin tutadi.

Siyosiy psixologiyaning nazariy metodologik tamoyillarini yaratishda S.L.Rubinshteyn va A.N. Leontyev tomonidan ishlab chiqarilgan faoliyatli yondoshuv, S.A.Klimovning “Kasblar dunyosi” haqidagi qarashi, A.A.Bodalev va A.A.Derkachning subyektning kasbiy mahoratga erishishdagi ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi subyektiv omillarning roli haqidagi mulohazalarni, muloqot va ijtimoiy idrok haqidagi A.G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev qarashlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Zamonaviy siyosiy psixologiya uchun XX – asrning 60-80- yillarida yaratilgan siyosatning roli nazariyasi nihoyatda dolzarbdir. Bu nazariyaning asosiy tushunchasi rollardir. Psixologiyadagi “rol” shaxsning jamiyatdagi egallab turgan mavqeyi taqozo etadigan hatta-harakatlar yig'indisidan iborat.

Siyosiy psixologiyadagi kognitiv yo'nalish eng avvalo siyosiy tafakkurni tadqiq etadi. Asosiy e'tibor siyosiy ongning shakllanish jarayoniga qaratiladi. Gumanistik psixologiya namoyondalari fikricha, siyosatni tahlil qilishda shaxsning xissiy - motivatsiyasini hisobga olish kerak. Ayniqsa A.Maslouning extiyojlar

iyerarxiyasi va K.Rodjersning yo'naltirilmagan psixoterapiya haqidagi mulohazalari muhim o'rin tutadi. Amerikalik siyosiy psixolog S.Renshon demokratiya mohiyatini tushuntirishda A.Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasidan ustalik bilan foydalandi.

Siyosiy psixologiya bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yangi psixologik yo'nalish akmeologiyadagi ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin. Akmeologiya – ilm- fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarni namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadi. Ya'ni u shaxsning takomili jarayoni ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi. "Akmeologiya" tushunchasini birinchi marta fanga rus olimi N.A.Ribnikov tomonidan 1928 yilda kiritilgan bo'lib, uning o'zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanishi jarayonidir deb ta'riflagan edi. Lekin tom ma'noda jiddiy fan sifatida uning shakllanishiga yana bir rus psixologi B.G.Ananyev va uning izdoshlari bo'lgan peterburglik olimlar alohida ulush qo'shishgan. Ularning ta'kidlashicha, akmeologiyaning predmeti-odamning ijodiy salohiyati bo'lib, bu inson tomonidan o'ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlar va iqtidorlarini qanday qilib, qanday shart-sharoitda, qaysi qonuniyatlar ta'sirida ro'yobga chiqarishni kompleks tarzda o'rganadi.

Akmeologiya fanining asosiy vazifasi ongli faoliyat subyeksi bo'lmish shaxsni turli faoliyat jarayonlarida, xususan tanlangan-kasbkori, ihtisosligi doirasida o'z ijodiy salohiyatini to'la ochish va amalda namoyish etishga bog'liq bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar, texnologiyalar bilan ta'minlash, tanishtirishdir. V.Zazo'kin va A.Chernishovlarning yozishicha "Mohiyatan bu yetuk, barkamol insonlarning rivojlanishi to'g'risidagi fandır". Shuning uchun ham bu fan bugun biz uchun juda muhim va uning imkoniyatlari deyarli ochilmagan

Siyosiy psixologiyada uning predmeti mohiyatini ochib berish uchun ko'plab metodlardan foydalaniladi. Ommaviy, siyosiy xulq-atvor fenomenini o'rganish uchun: statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, ommaviy so'rovnomalar

o'tkazish va ularning matematik tahlil qilish, intervyu o'tkazish metodlari ham qo'llaniladi.

Siyosiy psixologiyada juda ko'plab maxsus metodikalar paydo bo'lmoqda. Siyosiy tafakkur va siyosiy ongini o'rganish maqsadida ijtimoiy psixologiyaning kontent-analiz metodidan ham keng foydalaniladi. Kontent - analiz metodi – turli axborot manbalari va testlarning ma'nosini tahlil qilishdan iborat.

Shu bilan birga siyosiy psixologiyada psixologik testlar: G.Ayzenk, Yu.Kettel, MMPI testlaridan, masofali tahlil, siyosatchi shaxsini o'rganishda ekspertlar bahosi metodikalaridan foydalaniladi.

Tajriba metodi va uning laboratoriya hamda tabiiy shaklidagi ko'rinishidan shaxsning siyosatdagi o'rnini aniqlash maqsadida foydalanib kelinmoqda.

Siyosiy psixologiyada tadqiqotchilik tabiatiga ega bo'lgan metodlardan tashqari rivojlantiruvchi–korreksion ta'sir etish, maslahat berish metodlari to'plami ham keng o'rin tutadi. Ular birgalikda siyosiy psixologiyaning tadqiqiy-rivojlantiruvchi psixotexnologiyasini tashkil etadi. Siyosiy maslahat jarayoni siyosiy arbob shaxsini diagnostika qilish, uning imijini tuzatish, keng jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlardagi uslubini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Buning uchun trening, ish o'yinlaridan foydalanish mumkin.

Siyosiy psixologiya–umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, tarixiy psixologiya, etnopsixologiya, iqtisod psixologiyasi, politologiya (siyosatshunoslik), siyosiy iqtisod, siyosiy sosiologiya va boshqa fanlar bilan yaxlit tadqiqotchilik maydoniga ega. Uning o'ziga xos predmetini aniqlash uchun “Siyosat”, “Siyosiy faollik”, “Siyosiy munosabatlar” tushunchalarini tahlil qilish kerak. Ba'zi mualliflar siyosat tushunchasini tahlil qilishda uning boshqaruvchilik vazifasiga urg'u berib, uni jamiyatni boshqarish san'ati deb baholaydilar. Boshqalari hokimiyat munosabatlari bilan bog'lab, xukmronlikka kuch ishlatish orqali erishish deb ko'rsatishadi. Uchinchilari esa siyosatni huquq bilan bog'laydi.

L.N.Gozman, Ye.B.Shestopal tomonidan siyosat bir necha aspektlarda ko'rib chiqilgan. Eng avvalo siyosat tizim sifatida ya'ni davlat institutlari tizimi sifatida qaraladi.

Haqiqatan ham, siyosat tarkibiga turli siyosiy institutlar tizimi sifatida prezident va parlament, armiya va xavfsizlik xizmati, ichki va tashqi ishlar vazirligi, moliya va ijtimoiy ta'minot hamda boshqa sohalar kiradi. Hokimiyatni boshqarishda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sudlov hokimiyati mavjud bo'lib, hozirda unga to'rtinchi hokimiyat sifatida ommaviy axborot vositalari ham kiritilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi jamiyat hayotini aks ettirishdan iborat.

Siyosiy tizimning eng muhim tarkibiy qismini – siyosiy tashkilotlar, partiyalar, jamoatchilik tizimlari va harakatlari tashkil etadi.

Siyosatning yana bir xususiyati siyosiy institutlarining faoliyat ko'rsatish dinamikasini aks ettirishdan iborat. Siyosiy jarayon–siyosiy institutlar, siyosat subyektlari, siyosiy qadriyatlar, siyosiy aloqa va munosabatlarning genezisi (rivojlanish)dir. “Siyosiy jarayon” tushunchasini siyosiy munosabatlar va hodisalarning ichki bog'liqlikka ega zanjiri siyosat subyektlarining hokimiyatga qaratilgan faoliyatining o'zaro munosabati birligi deb ta'riflash maqsadga muvofiq.

Siyosiy jarayon hokimiyatni faoliyatda, o'zgarishda o'rganadi. Shu tufayli siyosiy jarayon mavjudligining uch tarkibi–turg'unlik, rivojlanish, inqiroz tartiblari ajratiladi. L.V.Gozman va Ye.B.Shestopal tomonidan ko'rsatilgan tavsifga ko'ra, – siyosat bu siyosiy o'yinlar qoidasi tizimidan iborat. Har qanday tizim kabi siyosat ham ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Bu qonun yozilgan (me'yorlar, huquqlar) va yozilmagan (an'analar, odatlar, xulq-atvor qoidalari) bo'lishi mumkin. Lekin qonun va qoidalarga to'la rioya qilib bo'lmaydi. Sharoit taqozosi bilan ularni o'zgartirish yangilash zaruriyati vujudga keladi.

Siyosatning to'rtinchi tomoni, u qadriyatlar, fikrlar, qarashlar va yo'l-yo'riqlar yig'indisidan iborat. Har bir shaxsda siyosatni tushunish va baholashning o'ziga xos uslubi mavjud.

Siyosat inson faoliyatining bir turi ekanligi, uning beshinchi tomonini tashkil etadi. Bunday fikr insonlar siyosatni yaratadi degan aqidaga asoslanib olingan. O'z navbatida insonlar xulq-atvori siyosat fanining o'rganish obyekti hisoblanadi.

XX asr boshlarida nemis psixologi E.Shpranger insonlar tipini ajratganda – alohida siyosiy tip haqida fikr yuritadi.

Hozirda barcha shaxslar - professional siyosatchilardan tortib – oddiy fuqarogacha siyosiy jarayonga jalb qilingan. Siyosat bilan shug'ullanish insonning tabiiy instinktidir. O'z davrida Aristotel ham odamni – “siyosiy hayvon” – “Zoon politikon” deb atagan. Darhaqiqat, inson psixologiyasida hukmronlik qilish va bo'ysunish bilan bog'liq ehtiyojlar tizimi mavjud.

Siyosiy psixologiyada siyosat turli katta guruhlardagi-etnoslar, millatlar, qatlamlar, sinflar, tashkilotlar, davlat tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yig'indisidan iborat.

Siyosiy faollik o'z ichiga yetakchilarga xos individual xususiyatlardan tortib jamiyat hayotini davlat tomonidan boshqarishgacha bo'lgan fenomenlarni oladi.

Insonni siyosiy tizimining tarkibiy qismi sifatida qabul qiladigan qarashlardagi eng birinchi siyosiy qo'llab-quvvatlash nazariyasi bo'lib, uning asoschisi amerikalik politologlar D.Iston va Dj.Denninglardir. Ular e'tiborni eng avvalo ilgari siyosatda ishtirok etmagan aholini siyosiy jarayonga jalb etish masalasiga qaratishadi.

Hozirgi zamon siyosiy psixologiyasida o'rganiladigan yana bir muammo siyosatdagi tajovuz va zo'ravonlik bilan bog'liq. Shu asosda bilishning yangi tarmog'i – biopolitika va vaylensologiya vujudga keldi. Biopolitika – siyosiy psixologiyaning bo'limi hisoblanib, u altruizm, zo'ravonlik, tajovuz, himoya reaksiyalari kabi holatlarni o'rganadi.

Vaylensologiya (inglizcha-violence-zo'rlik) insonning tajovuzkor tabiatini umumiy holda o'rganadi.

Tajovuzkorlik va zo'ravonlik mohiyatini tushuntirishdagi qarashlar rang-barangdir. Siyosiy jarayonda esa uning bir necha shakllari namoyon bo'ladi. Huquqiy me'yorlarga rioya qilmaydigan kishilar uchun joriy etiladigan nazorat shaklidagi – davlat tomonidan o'rnatilgan tartib ham uning bir ko'rinishidir.

Siyosiy jarayon bir tekis kechmasligi tabiiy. Unda ayrim ziddiyatlar, to'qnashuvlar va mojarolar ro'y beradi. Siyosatchi, faylasuf, sosiologlarning fikricha, ziddiyatli holatning subyektiv xususiyatga ega ekanligi – uning bosh sababchisi ham allaqanday obyekt sabablarini ro'kach qilib, aslida o'z siyosiy

maqsadlarini qo'lga kiritish bilan bog'liq rejalarni oldinga suruvchi shaxslar, guruhlar ekanligi to'g'risida fikrlari aynan haqiqatni aks ettiradi.

Siyosat borasidagi psixologik masalalarga aralashuvning zarurati har doim bo'lmasada, ayrim paytlarda yirik islohotlar boshlanish arafasida, saylov oldi kompaniyalarida, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinish jarayonlari, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgarishi, siyosiy arboblarning imijini omma ongiga singdirish paytlarda psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etishda kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning o'zi juda zaif rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish davr talablaridan biridir.

I.2.Zamonaviy ijtimoiy siyosiy fenomenlar psixologiyasi.

Siyosiy timsollar tuzum rivojlanishida asosiy faktor ekanligidan tashqari, nafaqat siyosiy ongini rivojlanishida, balki shaxsning va umuman jamiyatning dunyoqarashi va qadriyatlarini o'rnatishida katta ahamiyat kasb etadi. Siyosiy timsollar siyosiy qarash, kayfiyat va his-tuyg'u bilan birgalikda siyosiy subyektning siyosiy ongida joylashadi va uning siyosiy ishi va madaniyatida ifodalanadi. Siyosiy timsollar jamiyat rivojlanishidagi an'analar aksi, ya'ni tarixiy yechimni kutayotgan masalalardan odamlarni birlashtiruvchi, faollikka chorlovchi omil bo'lib hisoblanadi. Siyosiy ideallar jamiyatni dinamik rivojlantirishda doimo o'zgarib, siyosiy ongini rivojlantirish salohiyatini ko'rsatib beradi. Yangi timsollarni paydo bo'lishi insonlarning rivojlanib borayotgan jamiyatda yanada murakkab yechimlarni topayotganligini, rasional va emosional darajasini ortib borayotganligini bildiradi. Shuning uchun siyosiy timsollarning hokimiyat o'rnatilishidagi ideal forma hisoblangan davlatlar misolida ko'rish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Siyosiy timsollarning o'rganish muammosi antik falsafada ham asosiy o'rin tutgan. Shu o'rinda Gerakli Effeskiy (eramizdan oldingi 544-483 yillar) dan misol keltiramiz. U davlat boshqaruvida shunday qonun bo'lmish kerakki, odamlar bu qonunga tog'ga suyanganday suyanib yashashlari lozim deb hisoblangan. Yagona donishmandlik, uning fikricha, shunday bilimga ega bo'lish kerakki, bu bilim barchani va doimo boshqara olsin.

Yevropa an'analarida Platondan boshlab (eramizdan avval 437-347 yil yashagan) ideal davlat tasavvuriga ega bo'lganlar. Ideal davlat konsepsiyasida siyosiy hokimiyat boshqaruvida siyosiy timsol jamiyat tizimining normasi, jamiyat rivojlanishining yo'nalishini belgilov sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Davlat, Platonning fikricha, insonlarda paydo bo'layotgan ehtiyojlar va jamiyatda mehnatning bo'linishi natijasida paydo bo'ladi. Va yana takidladiki, bunday davlat aholining qandaydir bir bo'lagini emas, butun halqining, davlatni baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

Antik falsafada siyosiy davlat timsoli boshqaruvining 3 xil shaklida ko'rsatilgan: yetuk demokratiya, yetuk oligarxiya va yetuk monarxiya.

Buyuk mutafakkir Arastu davlatlarni to'g'ri va noto'g'ri formalariga ajratgan. Monarxiya, aristokratiya va demokratik elementlarga ega bo'lgan davlatlar uning fikricha- to'g'ri davlatlar; chunki ular barchaning baxti uchun kurashuvchi adolatli xokimiyat o'rnatdilar. Oligarxiya, demokratiya va mustabid-noto'g'ri davlatlar; chunki ular tabiiy rivojlanishga qarshi bo'lib, o'z-o'zicha hokimiyat o'rnatilishi tarafdorlaridir.

Siyosiy timsollar nazariyasini o'rnatilishida uyg'onish davri buyuk mutafakkiri Nikolo Makviialining hissasi kattadir. O'z qiziqish, istaklarini amalga oshirishga intilayotgan inson xarakterini tahlil qilish mobaynida Makviialli birinchi bor falsafa va siyosiy fikr tarixida ideal davlatni inson tabiatini qo'lga olish (boshqarish), tartib o'rnatish uchun tuzilgan zo'rlash, majburlash intituti sifatida ko'radi. Uning fikricha ideal davlat xalq va amaldorlarning kelishuviga asoslangan bo'lishi kerak.

O'z o'rnida Erazm Rotterdamskiy (1469-1536) ham siyosiy timsolni o'zining "Jalobo' mira" («Dunyo shikoyatlari») asarida davlat boshqaruvchisi o'z yerlarini gullab yashnashi uchun tinmay mexnat qilishi kerakligi haqida yozadi.

Siyosiy timsol haqidagi izlanishlar Grosiy, B. Spinoza, Dj. Lokk, T.Gobbs asarlarida davom etgan.

Ayniqsa I.Kant, I.Fixte, F.Shiller, G.Gegel asarlarida siyosiy timsol haqida to'laroq tushuncha berilgan.

I.Kantning fikricha, timsol (ideal) bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, u shu maqsadga erishish yo'lida g'oya sari intiluvchi va boshqaruvchidir.

I.Fiktning fikricha, siyosiy timsol aslida barcha individlar qonun oldida barobar ekanligini ko'rsatuvchi davlat arbobidir.

U yer yuzidagi hayotni 5 ga bo'ladi.

- 1) Aql instinkt orqali boshqariladi insoniyat aybsizligi (gunohsizligi) davri.
- 2) Boshlanayotgan gunohkorlik davri
- 3) To'la gunohkorlik davri

4) O'zini oqlashga xarakat qilish davri

5) bilimli, o'zini oqlay oladigan davr. Ya'ni boshlang'ich davrga qaytish asosiy maqsad ekanligi davri.

Gegelning fikriga, ideal- bu o'zidagi qarama-qarshiliklar birligini rivojlanib borayotgan jarayon deb tushunib qarshiliklarni kuch bilan yenga oladigan yakuniy holatdir.

Buyuk nemis faylasufi A. Shopengauer (1788-1860) o'zining "Mir kak volya i predstavleniye" ("Dunyo iroda va tasavvurdek") nomli asarida ideal haqidagi fikrlarini bayon etganligi bilan butun dunyoga mashxurdir. Uning fikricha, siyosiy timsol ijobiy huquqdir. Uning maqsadi hech kim noxaklikka uchramasin.

L.A.Feyerbax, V. Pareto, F.Nisse, K. Yaspers, G.Markuz, K.R.Popper, T.Parsons va boshqa buyuk allomalar siyosiy timsollar masalasida o'z tadqiqotlarini o'tkazganlar. Ularning fikricha xar bir tarixiy rivojlanish davrida o'ziga hos, o'sha davrga mos siyosiy timsol (ideal) mavjud bo'lib, uning atrofida partiyalar, gruppalar va tashkilotlar tuziladi. Shuning uchun ham jamiyatning rivojlanish yo'nalishi maqsad va vazifalari ularga ideallarga bog'liqdir.

Ilmiy izohlangan siyosiy timsol insonlarning maqsadlari, izlanishlari singari jamiyat rivojlanishida obyektiv qonuniyatlarni yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

Juda ko'p qarashlarda siyosiy timsol davlatlarning tashkil bo'lishida asosiy o'rin tutadi.

Har-xil davrlarda ramz va afsonalar inson ustidan hukmronlik qilgan, individ yoki jamoa xarkatini boshqargan. Ramz bu har qanday so'z, ism, tasvir, narsa ham bo'lishi mumkin, agar o'z mazmunidan tashqari qo'shimcha mazmunga ega bo'lsa.

Asosan ramzlarning kelib chiqishining madaniy va psixologik negizlari-badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi, din, mafkura va tildir.

Ramzlar tasnifida ular diniy, badiiy va ijtimoiy guruhlarga bo'linadi.

-davlat ramzlari (bayroq, tamg'a va h.)

Psixologik ramzlarga asosan tush ramzlari kiritilgan.

Undan tashqari dinamik va statistik ramzlar mavjud. Masalan: diniy dinamik ramzlar-har- xil xudoga sig'inish, ibodatlar bilan namoyon bo'lsa; siyosiy dinamik ramzlar turli namoyishlar, aksiyalar, mitinglar orqali namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyat siyosiy ong, aql-idrok va xulq –atvor yig'indisi sifatida.

Zamonaviy siyosatchining siyosiy madaniyati- siyosiy sohadagi subyektning juda murakkab har tomonlama rivojlangan ko'rinishidir.

Insonning siyosiy madaniyatini uning siyosiy sohada to'plangan, orttirgan malakasi belgilaydi. Bu uning faoliyati davomida, aniq qilgan ishlarida namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyat mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir; siyosiy ong, siyosiy mentalitet, siyosiy hulq. Har birini tahlil qilib ko'rish mumkin.

Siyosiy subyektning siyosiy ongi- psixikaning eng rivojlangan yuqori shakli bo'lib u siyosat, hokimiyat ishlari, davlat va uning institutlari bilan bog'liq bo'lgan voqyea, hodisalarini qabul qilish, tushunish va baholash ishlarini faoliyatida aks ettiradi.

Insoniyatning siyosiy tarixi rang-barangdir. Shunday davlatlar bo'lganki, unda odamlar hech qanday huquqga ega bo'lmaganlar, boshqaruvchi tomonidan xayotlari boshqarilgan, ho'rlanganlar. Boshqa davlatlarda odamlar ozodlik, erkinliklariga ozgina taxdid solinishiga qarshi turganlar va davlat boshqaruvchisi huquqini cheklanganlar.

Ba'zi davlatlar o'z oldilariga buyuk maqsadlar- imperiyalar yaratish, yangi yerlarni qo'shish, o'z dini va siyosiy tuzumini yaratishga qaratganlar. Boshqalari esa o'z oldilariga fuqarolariga xizmat qilishni maqsad deb qo'yganlar. Hokimiyat va fuqarolar doimo bir-birlariga bog'liq bo'lganlar. Davlat odamlar oldiga talablarini qo'ygan. Fuqarolar qabul qilganlar yoki qarshilik ko'rsatganlar.

Infantil (yaxshi rivojlanmagan) ong subyekt va obyekt ajratmaydi. Yarim yoshli bola, masalan, o'zini –o'zi tishlab olsa, nima uchun og'riq paydo bo'lganini tushunmaydi va yig'lar ekan tishlashda davom etadi.

Xuddi shunday totalitar ong egasi hokimiyat va jamiyatni farqlamaydi. Boshqa davlatlarda bo'lgan "hokimiyat va jamiyat" muammosi totalitar tuzumda umuman bo'lmaydi.

Totalitar ong jamiyatning absolyut birligiga ishonadi va uni amalda hokimiyatga qarshi chiqqanlarni o'ldirish bilan qo'rqitadi. Bunday davlatlarda kasaba qo'mita hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

XX asrda siyosiy hokimiyat hulqi va jamiyatning siyosiy ongi bir-biriga to'g'ri kelmagan xolatlar kuzatilgan. Portugaliya va Ispaniyadagi revolyusiyalar, o'z yo'nalishida rivojlanayotgan Janubiy Koreya, Birma, Pokiston va Chili bunday holatlarga misol bo'la oladi.

Avtoritar tuzum totalitar tuzumdan farqliroq o'z hokimligini har qanday yo'llar, hatto majburlash yo'li bilan amalga oshiradi va siyosiy sohada hech qanday konkurensiyaga yo'l qo'ymaydi. Faqatgina odamlarning o'zaro munosabati, madaniyat va iqtisod bundan mustasno bo'lishi mumkin.

I.3.Siyosiy jarayon va etnopsixologik xususiyatlari.

Politologlar siyosatda bo'layotgan voqeya hodisalarni mazmuniga e'tibor qaratsalar, psixologlar bu voqeya-hodisalar qanday sodir bo'layotganiga e'tibor beradilar.

Siyosat haqidagi boshqa fanlardan farqli ravishda psixologiya avvalo siyosiy rolni bajarayotgan odamlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Umuman olganda siyosiy xulq termini ostida fanda alohida ishtirokchi va ommaviy namoyishlar, xokimiyat subyektlarining faolligi, odamlarning namoyishlari, aksiyalari, ish tashlashlari ham tushuniladi.

Psixologlar inson faoliyatini 3 shaklga ajratadilar: instinkt, bilim va ko'nikma, aqliy harakatlariga.

Bu psixologik tasnif siyosatni tasvirlashda ham muxim ahamiyat kasb etadi.

Instinkt-bu, harakat quvvatini yo'naltiruvchi, biologik bog'langan, hulq-atvorning tug'ma moduli. Psixologlar inson his tuyg'ulari chegarasi masalasida har-xil fikr bildirsalarda, ko'pgina harakatlar instinktiv xarakterga ega ekanligini tan oladilar. Ba'zi psixologlar bunday instinktlarni o'ntagacha desalar, qolganlari mingtacha bor deb hisoblaydilar.

Instinkt tarkibiga inson xulqidagi avtomatik (nafas olishdan to yurishgacha) va extiyojlarga bog'liq ortirilgan (o'zini saqlash, naslni davom ettirish, va x.) xarakterlar kiradi.

Siyosatda insonning barcha instinktlari tajovuzkorlikdan to ochko'zlikkacha, birodarlikdan to o'z-o'zini saqlashgacha namoyon bo'ladi.

Siyosatdagi xulq-atvorning instinktiv asosi biron bir harakatga energiya yo'naltirish uchun inson tomonidan idrok etmagan (o'zi bilmagan) holda ro'y beradi.

Tug'ma instinktlardan farqli o'laroq inson xatti-xarakatining ko'p qismi hayot tajribasida ortirilgan ko'nikmalardan iboratdir. Siyosat haqida gapirar ekanmiz siyosiy bosqich ishtirokchisining o'z funksiyasi va rolini bajarishi uchun talab etiladigan usul, uslub, siyosiy madaniyatdagi odatlarni, stereotiplarni tushuniladi.

Ongli xarakterlar siyosiy hujqning alohida shakli bo'lib siyosiy ong xarakterining maqsadlari uchun xizmat qiladi.

Siyosatning maqsadi ijtimoiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlash, har xil ishtirokchilarni birlashtirish uchun turli usullar qo'llanadi. Avvalo bu masalani turli dasturlar, mafkuraviy sxemalar, siyosiy aksiyalar, kompaniyalar yechadilar.

Siyosiy hujq uchun yakka inson yoki partiyalar mafkurasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan siyosiy xujqning uch shakli: instinktlar, ko'nikmalar va ongli xarakter-analitik maqsadda qo'llaniladi.

Zamonaviy siyosiy psixologiya siyosiy madaniyatning ko'plab nazariy modullarida namoyon bo'ladi. Lekin barcha yo'nalishlar, tadqiqotlar strategiyalarga kiritiladi.

Birinchisi odamni siyosiy ta'sir obyektini sifatida siyosiy mashina vintchasi deb tasavvur qiladi. Ikkinchisi guruh tadqiqotchilari boshqa fikr, ya'ni inson faqat siyosiy ta'sir obyektini bo'libgina qolmasdan siyosiy tuzum rivojlanishining maqsadi, uning faol subyektini deb hisoblaydilar

Siyosiy jarayon – ko'pqirrali holat. Tadqiqotchilar uni har hil izohlaydilar.

Siyosiy psixologiya shaxsni yoki guruhni siyosiy jarayonga kirish mexanizmi, obyektiv qonuniyligi va faktorini ochish, o'rganishni taqozo etadi. Ijtimoiy – siyosiy jarayonni individ tomonidan psixologik qabul qilishi milliy omilga bog'liqdir.

Milliy xarakter bu-bir millat birlashmasiga hos o'rab turgan dunyoni emosional his-tuyg'u orqali qabul qilish va unga javob berish demakdir. Shuning uchun siyosiy subyekt siyosiy voqyealarga o'z milliy xakteri va temperamentidan kelib chiqib munosabat bildiradi.

Milliy xarakter – millat va milliy psixologiyaning asosiy elementi hisoblanadi. Bo'layotgan voqyea-hodisalarda xalq ruhi ta'siri sezilarli darajada ifodalanishi sezilarli darajada ifodalanmasligi mumkin.

Milliy xarakter tushunchasi allaqachonlar ilmiy tadqiqot predmetiga aylangan.

XX asr o'rtalarida birinchi xarakter xususiyatlar masalasi Germaniyada xalqlar psixologiyasi maktabida ko'rilgan. Bu ilmiy tadqiqot ishtirokchilari tarixiy jarayonda rivojlanishda, o'zgarishda asosiy xarakterlanuvchi kuch xalq, uning ruxi, dini, tili, san'ati, afsonasi va odatlari deb hisoblaydilar.

Umuman olganda milliy xarakterni o'rganar ekanmiz, bu juda murakkab xolat ekanligiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy jamiyatni turli mezonlar bilan tavsiflash mumkin; yoshi, milliy etnik tarkibi, sinfiy holati, boshqaruv tizimidagi o'rni va boshqalar. Bunda oldinga rivojlanishda biron ijtimoiy guruhdagi ishtiroki, intellekti, irodasi, tashkilotchilik qobiliyati, millatning gullab yashnashidagi, davlatning mustahkamlanishdagi iqtidori, millat xavfsizligini ta'minlay olishi, texnik rivojlanishi, xalqaro avtoritetni saqlay olishi asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib jamiyat tizimida elit (alohida) qatlam va faolligi sust regressiv qismlarini ajratish mumkin. Elita tushunchasiga uning jamiyatdagi o'rni paydo bo'lishi, funksiyasi va almashinish tamoiliga lug'atlarda turlicha yondoshiladi. "Elita" termini "eng yaxshi terilgan tanlangan" ma'nosida ham ishlatiladi. Avvallari bu termin qishloq xo'jaligida eng yaxshi don maxsuloti, eng yaxshi hayvon turlarini baholashda ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan jamiyatda xurmatga sazovar, boy, avtoritetga ega, mashhur ijtimoiy guruh namoyondalariga nisbatan ishlatila boshlandi. Avvalo bu siyosatda, biznesda, san'atda va xarbiy sohada qo'llaniladi.

Zamonaviy talqinda siyosiy elitaga nafaqat davlatning birinchi shaxslari, balki har xil partiya va tashkilotlari, balki har xil partiya va tashkilotlarning liderlari, qonunshunos, sudya va ijrochilar ham kiritilgan.

Siyosiy elitaning paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

- 1) Odamlarning psixologik va ijtimoiy tengsizligi, siyosatda qatnashish ixtiyorlari va iqtidorlari.
- 2) Mehnat taqsimoti haqidagi qonun
- 3) Boshqaruv mexnatining jamiyatdagi o'rni

- 4) Ijtimoiy imtiyozlarga ega bo'lish maqsadida boshqaruv faoliyatidan foydalanish.
- 5) Keng omma tomonidan siyosiy raxbarlarni xar tomonlama nazorat qilish imkoniyati yo'qligi
- 6) Axolining ayrim qatlamlarini, fuqarolarini siyosiy munosabatdagi passivligi.

Siyosiy elitaning almashinuvi va paydo bo'lishi davlatning "birinchi" shaxslariga ta'sir o'tkazish kurashishda sodir bo'ladi. Bu ko'pincha davlat tuzumining o'zgarishi, jamiyatning qayta qurilishi, modernizasiya davrida sodir bo'ladi.

Shuning uchun siyosiy elita tushunchasi salbiy ma'noni kasb etadi.

Makiavelli, V. Pareto kabi mutafakkirlar siyosiy elitaga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini bildirganlar.

Siyosiy elitalar bo'yicha psixologik tadqiqotlar nazariyalarini uch guruhga ajratilgan.

1. G.Djilbert, B.Skinner nuqtai nazarlari asosidagi psixologik nazariya odamlarning alohida iqtidor psixologik xususiyatlarga egaligi.
2. Z.Freyd va E.Eriksonlarning psixoanalitik nazariyasi
3. E. Fromm va G. Lassuell g'oyalarining asosida ijtimoiy-psixologik nazariya.

Agar shaxs davlat funksiyasida eng mas'ul vazifani o'tash qobiliyatiga ega bo'lsa uni elitaga kiritish mumkin.

Siyosiy elita haqidagi g'oyalarni to'laqonli tushunish uchun ijtimoiy guruhlar ommaning psixologik xulq-atvorini o'rganish zarur.

XX asrda ijtimoiy psixologiya asoschisi G.Lebon (1841-1931) odamlarning har qanday yig'inini omma deb hisoblagan. Omma, Lebonning fikricha tartibsiz hisoblanib, unga boshliq darkor. U esa elita rolini bajarishi mumkin.

Ommaning psixologiyasini zamonaviy nazariyachi olim fransuz professori Serj Moskovichi atroflicha o'rgangan. O'zining "Vek tolpo" (Ommaning asri) 1981 yildagi monografiyasida amaliyotga qo'llanilayotgan nazariyalarni bir tizimiga solib tahlil qilib ko'rsatadi.

Jamiyatdagi siyosiy elitalar

Siyosiy elita-o'zining tashkilotchilik qobiliyati bilan ajralib turuvchi aholining ayrim qismlaridan tashkil topgan guruhdir.

«Elita» tushunchasi fanga bir marta fransuz mutafakkiri G.Moski tomonidan kiritilgan va shu asosida siyosiy elita nazariyalari yaratilgan.

Siyosiy elita guruhlari qadimgi tarixiy davrdan shakllana borgan. quldorlik tizimiga o'tilgandayoq jamiyatda kishilarning yuqori va pastki, martabali va martabasiz aristokrat va oddiy kishilarga ajralishi ro'y bergan. Jamiyatda bunday bo'linish, uning sabablarini Konfusiy, Aflotun, Arastular o'z asarlarida ta'riflab berganlar. Aflotun quldorlik jamiyatidagi aholini 4 ta toifaga boshqaruvchilar, xarbiylar, dehqonlar va xunarmandlarga ajratganlar.

Arastu ham aholini 3 ta guruhga- boylar, o'rta qatlam, kambag'allarga ajratadi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham aholini turli guruhlarga bo'lish to'g'risida muhim fikrlarni aytganlar. Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamoa a'zolarini ularning turli belgilariga qarab xar hil guruhlarga bo'ladi. Bunda aqli bilimi, ko'nikmasiga qarab ajratgan

Ibn Sinoning «Ishorat va tanbixat» asarida kishilarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyiga qarab 3 guruhga ajratadi.

1. Davlat idoralarida ishlovchi boshqaruvchilar.
2. Dexhonchilik va xunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar.
3. Mamlakatni qo'riqlovchi

A.Temur o'zining «Temur tuzuklari» da jamiyat a'zolarini

- 1) amaldorlarga
- 2) sipohiylarga
- 3) ilm ahillariga
- 4) dehqon va xunarmandlarga ajratadi

IX asr oxiri XX asr boshlariga kelib siyosiy elita tushunchasi ijtimoy-siyosiy fanlarda keng o'rganila boshlandi. Bu davrda fransuz va nemis olimlari V. Paritto, G.Moski, R. Mixelslar siyosiy elita guruhlarni jamiyat xayotidagi o'rni va rolini chuqur taxlil qilib berdilar.

Bu xaqda G. Moski o'z asarida quyidagilarni yozadi: «Har qanday jamiyatda, ya'ni eng past darajada rivojlangan jamiyatdan eng yuqori darajada rivoj topgan jamiyatgacha bo'lgan barchasida ikkita sinf boshqaruvchilar sinfi mavjud bo'ladi. Birinchi sinf xamisha oz sonli bo'lib siyosiy funksiyani bajaradi, xokimiyatni monopoliya qilib oladi va uning afzalliklaridan foydalanadi. Ikkinchi sinf-eng ko'p sonli bo'lib bir tomondan boshqariladi va tartibga solib turiladi»

G.Moski birinchi bo'lib siyosiy elitaning shakllanishi va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatib berishga xarakat qilgan. Uning yozishicha siyosiy elitada jamiyatni boshqarish va unga rahbarlik qilish ustun bo'ladi.

V.Pareto ham siyosiy elita shakllanishi xususiyatlarini nazariy asoslab «Insoniyat jamiyati o'zining aqliy, jismoniy, axloqiy, siyosiy va tashkilotchilik qobiliyatlari bilan ajralib turuvchi kishilar» guruhlaridan tashkil topganligini asoslab beradi. Elita guruxlari boshqarish va rahbarlik qilishga daxldor kishilardan tashkil topgan.

Ma'lumki boshqarish va rahbarlik qilish jamiyat uchun obyektiv zaruriyatdir. Shuning uchun ham siyosiy elitaga tug'ilgan extiyoj ham shu zaruriyatdan kelib chiqadi. Biroq siyosiy elita guruhleri orasida hamma vaqt ham shu boshqarish, rahbarlik qilishga qodir bo'lgan kishilargina bo'lavermaydi. Ular ichida shunday kishilar ham uchrab turadiki ular qo'pol xatolarga yo'l qo'yadilar va vazifani bajarishda noshudlik qiladilar. Natijada o'z vazifalaridan tushib boshqa guruhlarga mansub bo'lib qoladilar. Ularning o'rnini eng yaxshi kishilar egallab shu asosida siyosiy elita guruhlarining mavjudligi muqarrar bo'lib qoladi. Demak, jamiyatning o'zi siyosiy elita guruhlarining xarakterlarining yo'naltirib tartibga solib turadi. Siyosiy elita guruhleri jamiyat a'zolarining bir muncha bilimdon ongli va ishchan qismlardan tashkil topgan. Ular jamiyat, jamiyat hayotidagi ro'y beradigan siyosiy voqyea va xodisalarni o'zgarishlar mohiyatini ancha ziyrakli bilan payqab kuzatib boradi. Ular siyosiy hokimiyatning barcha bo'g'imlarida va boshqarishning turli shakllarida harakat qilib uning imkoniyatlaridan turli darajada foydalanadi. Bunday ustunlik siyosiy elita guruhlarining jamiyat hayotida erkin harakat qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'sunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada «Lider» va «Boshliq» tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D.Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi.

1. Lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar-shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2. Liderlik kichik guruhlargagina mos bo'lgan xodisa bo'lsa, rahbarlik haquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3. Agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan xodisadir;

4. Liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik xodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5. Rahbarning liderdan farqi shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6. Lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketish qiyin;

7. Liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi kengroq ijtimoiy doiradagi jamiyatning vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider xech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari guruhida qaraladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va xakozolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir.

Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatidirki, u boshqa shaxslarga ham xissiy-emosional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega. Norasmiy obro'lilik, ya'ni shaxslar aro munosabatlar maxsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshash obro' orttirish mezonlaridandir.

II-BOB. TALABALARGA JAMIYATDAGI SIYOSIY XULQ-ATVORNING O'ZIGA XOSLIGI ANGLATISH.

II.1.Ommaviy tUSDagi xulq-atvor.

Vahima inson psixikasiga xos ommaviy tUSDagi xodidir. Vaxima qo'rqishning namoyon bo'lishidan iborat bo'lib, odatda uyushmagan guruhni qamrab olib, o'zaro tahdid qilish natijasida kuchayib boraveradi. Guruh-ichki jixatdan qanchalik mustaxkam uyushgan bo'lsa, bu guruxda ayni bir xil sharoitda vahima shunchalik kuchsiz yuz beradi.

Ijtimoy kayfiyat ommaviy tUSDagi, istagan bir guruhga xos xodisadir. Xuddi mana shu ijtimoiy kayfiyatning o'zginasi guruxdagi "psixologik iqlimni" yuzaga keltiradi. Kayfiyatni yuzaga keltiruvchi asosiy omil- mazkur guruxdagi shaxslararo munosabatlardir. Ma'lumki obyektiv qiyinchiliklarni "yaxshi psixologik iqlimga" ega bo'lgan jamoa ancha yengillik bilan xal qiladi. Shuning bilan birga guruxda bitta fitnachi paydo bo'lsa butun jamoaning mexnat samarasi uzoq davrlargacha pasayib ketadi.

Jamoa kayfiyati keskin yomonlashuvining juz'iy sababalaridan biri biz ba'zan ayrim pedogog va raxbarlar tomonidan ishontirish xarakterida qilinadigan salbiy psixologik ta'sirlardir. Vrachning extiyotsizligi beparvolik bilan aytilgan so'zi natijasida odam kayfiyatida yuz beradigan ba'zan kasallik xolati xarakteriga ega bo'ladigan o'zgarishlar didaktogen degan nom bilan yuritiladi.

Eng ko'p o'rganilgan ommaviy tUSDagi xodisa jamoa tafakkuridir. Jamoa tafakkuri qo'yidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: jamoa tafakkuri jarayonida har bir jamoa a'zosining yuzaga kelgan vazifani hal qilishda bir maqsadga intilib xarakat qilishi kuchayadi. Jamoa tafakkuri xal qilinishi lozim bo'lgan vazifani uylab xar tomonlama yoritib olish imkoniyatini beradi.

Siyosiy ong - siyosiy fan tushunchalaridan biri. U o'zining mohiyati, manbai, funksiyalariga ko'ra iqtisodiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, estetik, diniy ongdan farq qiladi.

Siyosiy ong — siyosiy borliqning idrok qilini-shidir. Kishilar mavjud siyosiy voqyelik bilan shunchaki qanoatlanib qolmaydilar.

Ular hamisha bu voqyelikni bilishga, anglashga va uni o'zgartirishga intiladilar. Kishilarning ana shu siyosiy borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari ularning siyosiy ongini tashkil etadi. Siyosiy ong - muayyan individ, guruh, qatlamlar tomonidan siyosiy sohani anglashi, tasavvurlari, bilimlari, baholashi tizimidir. Siyosiy ong - bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to'g'risidagi bilimlar, tasavvurlar, malakalar, e'tiqodlar, o'zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig'indisidan iboratdir.

Siyosiy ong — siyosiy borliqning subyektiv aks etishidir. U siyosiy voqyelikni qanday bo'lsa, shunday, xolisona tarzda, bo'yamasdan, bo'rttirmasdan, mutlaqlashtirmasdan aks ettirishdir, Biroq, siyosiy ong siyosiy voqyelikni oyna kabi qanday bo'lsa, shunday, mexanik tarzda, jonsiz aks ettirmaydi. U siyosiy voqyelikning sir-asroriga "kirib" boruvchi, undan ilgarilab ketuvchi, ijtimoiy-siyosiy jarayon-larning o'zgarishi va rivojlanishini bashorat qiluvchi aks etishdir. Siyosiy ong — jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha boshqa sohalariga katta ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Bundan tashqari, alohida olingan kishilarning ham, jamiyat ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining ham xulq-atvori va faoliyatlarining xarakteri ko'p jihatdan siyosiy ongning shakllanish va rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shuning uchun ham ijtimoiy jarayonlarni siyosiy boshqarish amaliyotida, ham jamiyatning, ham uni tashkil etuvchi individlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning siyosiy ongi holatini hisobga olish o'ta muhimdir. Bu o'rinda hokimiyatlar, siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlab turishga imkon beradigan, davlatning ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini to'la ifoda etadigan siyosiy ongni shakllantirish va rivojlantirishga intilishlari zarur.

Siyosiy ong ko'pincha siyosiy hokimiyat to'g'risidagi tasavvurlar yigindisidan iborat bo'ladi, ongsiz, tasavvurlarsiz kishilik jamiyati bo'lmaganidek, siyosiy ongsiz, tasavvurlarsiz hech qanday siyosiy sohaning bo'lishi ham mumkin emas.

Siyosiy ong — bu guruhiy xarakterga ega bo'lgan ongdur. Har bir kishi ma'lum ijtimoiy guruh, tabaqaning a'zosi, birorta millatning vakili, biror davlatning fuqarosi hisoblanadi.

Mana shu mansublik kishilar siyosiy ongining mazmunini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy ong kishilar tomonidan o'zlarining biron-bir guruhga mansub ekanliklarini anglash asosida shakllanadi. Guruhga mansublik esa o'z navbatida kiishlarda muayyan siyosiy pozitsiyaga egalik hissini tug'diradi. Siyosiy ong nafaqat guruhiy, balki individual xarakterga ham egadir. U aniq tarixiy shart-sharoitning, muayyan omillar ta'sirida ham bo'ladi.

Siyosiy ong — muayyan ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning siyosiy institutlarda ishtiroki, unga munosabatini o'zaro manfaatlar uyg'unligi darajasida aks ettiruvchi va uni ta'minlab beruvchi omil hamdir.

Siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi manba — insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g'oyalar va xissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to'g'ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar — siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba — bu keng ma'nodagi axborotdir. U insonga xam muomala orqali, ham ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) orqali "kirib" boradi.

Uchinchi manba — bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig'indisini tashkil etadi. Bunda oilada olingan bilimlar turli avlodlar tomonidan to'plangan siyosiy tajriba, qarashlar, an'analar qadriyatlarni siyosiy hayotda aks etishi, uni qo'llash orqali ham namoyon bo'ladi. Axborot xaqiqiy ham, yoki yolg'on ham bo'lishi mumkin. Insonning hayotiy tajribasi ham uning boshidan kechirilgan boyligi bo'laturib tipik bo'la olmasligi va siyosiy voqyelikni aks ettira olmasligi ham mumkin.

Har qanday sharoitda ham insonning o'zi bu omillarni ko'proq yoki ozroq darajada ravshan bo'lgan va ma'naviy jihatdan tuzilgan siyosiy tizim o'zgartiradi. Ko'p kishilarda bu jarayon stixiyali tarzda, tasodifan va mavhum ravishda sodir bo'ladi. Bundan tashqari ko'p kishilar ularga o'rgatgan, yoki boshqa tashqi manbalardan bo'lgan siyosiy mo'ljalga qaratilgan fikr-mulohazalarni qaytarishga moyil bo'ladilar.

Kishilarning siyosiy muammolarni anglashi siyosat dunyosi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, og'ir ahvolda qolgan korxonada ishchisi ishdan bo'shatishni ko'zda tutmaydigan qarorlarni yaxshi qarorlardir, deb hisoblaydi. Boshqarayotgan yagona partiyaning faoli, agar hokimiyatga muxolifat kelsa, mamlakatda iqtisodiy vaziyat yomonlashadi, deb o'ylaydi. Sog'lom amaliy muxolifat bilan nosog'lom muxolifatning farqini hisobga ham olmaydi. Agar biror siyosiy arbob korrupsiyada ayblansa, uni o'zining siyosiy mavqeyiga bog'langan hodda aybdor, deb hisoblaydi.

Demak, voqeyelik o'zidan-o'zi siyosiy ong orqali baholanmaydi. Uning qabul qilinishi kishilarning avvalgi e'tiqodlari va manfaatlariga ham bog'liqdir. Siyosiy ong yakka xolda emas, balki ijtimoiy ongning boshqa shakllari: iqtisodiy qarashlar, falsafiy ta'limotlar, huquqiy nazariyalar va me'yorlar, axloqiy, estetik qadriyatlar bilan o'zaro bog'liq va birgalikda harakat qiladi.

Ko'p siyosiy ta'limotlar va qadriyatlar siyosiy onging mahsuli bo'la turib, hozirgi jamiyatda g'oyaviy ahamiyatga egadir. Ular faqat kishilarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish uchunгина emas, balki insoniyatning ma'naviy, ma'rifiy, madaniy taraqqiyoti uchun ham juda muhimdir.

Shu bilan birga, ayrim davlatlar va ulardagi birlashmalar, ijtimoiy guruxlar, millatlar, partiyalarning siyosiy faoliyati jarayonida siyosiy ongning to'g'ri kelmay qolishi, uning tinch, madaniy, murosa xarakterda bo'lishi o'ta muhimdir. Siyosiy ong ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi.

Bu funksiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy hayot to'g'risida bilish — axborot berish. Kishilar ertami yoki kechmi, xoxlaydimi yoki yo'qmi, ammo muqarrar ravishda siyosat dunyosiga duch

keladi. Ular bu soha bilan shug'ullanishni xoxlamasalarda siyosat ular bilan baribir "shug'ullanadi". U kishilarning hayotiga va taqdiriga davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Siyosat kishilarga siyosiy axborot ko'rinishida "kirib" boradi.

Hozirgi hayotning mexanizmlari shundayki, ki-shilar doimo biror yo'lni, shu jumladan, siyosiy yo'lni tanlab olishga ehtiyoj sezadilar. Bu ularni siyosat dunyosini bilishga, siyosiy axborotlarni egallashga undaydi.

Siyosiy ong kishilarga siyosiy bilimlar va axbo-rotlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z o'rnini belgilashga va uni to'g'ri mo'ljalni olishga yordam beradi.

2. Siyosiy baholash. Siyosiy ong sosial siyosiy voqyelikni nafaqat biladi, izoxlaydi, balki uni baholaydi. Kishilar u yoki bu siyosiy hodisalar, voqyealarni anglash jarayonida ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. O'zlari uchun muayyan xulosalarni chiqaradilar. Aynan siyosiy voqyeliknn baholash asosida kishilar o'zlarining siyosiy qarashlarini, e'tiqodlarini, pozisiyalarni, qiziqishlarini shakllantiradilar.

Z.Siyosiy-ijtimoiy yo'naltirish. Siyosiy ong kishilarga o'zlarlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat burchlarga, majburiyatlarga, balki muayyan huquqlar,erkinliklar va siyosiy manfaatlarga ega bo'lgan fuqarolar ekanliklarini anglashga yordam beradi. O'z navbatida fuqarolik o'zini-o'zi idrok etish, kishilarni sosial voqyelikni bo'sh, bir tomonlama anglashdan ijtimoiy-siyosiy hayotda aniq va faol ishtirok etishga undaydi. Bu bilan siyosiy ong o'zining yo'naltiruvchilik funksiyasi orqali kishilarning aniq siyosiy xulq-atvorini o'zlarining sosial siyosiy manfaatlarini himoya qilishlari uchun ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari, siyosiy partiyalarga, jamoat tashkilotlari va boshqa siyosiy uyushmalarga o'zlarining ham fikrlari bilan birlashishlari zarurligini uyg'otadi.

4. Siyosiy hayot va manfaatlarni tartibga solish. Siyosiy ong voqyelikni idrok etish asosida hamda uning tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g'oyalar, me'yorlar, tasavvurlar va e'tiqodlar negizida kishilarning siyosiy ijtimoiy xulq-atvorlarini, faoliyatini tartibga soladi.

Siyosiy **ongning** tartibga solish funksiyasiga ehtiyoj jamiyat taraqqiyotining keskin burilish bosqichlarida, **inqirozli** davrlarida mislsiz ortadi. **Aynan siyosiy** tizimning samaradorligi, voqyealarning rivojlanish yo'li, ijtimoiy-siyosiy o'zgarish-larning yo'naltirilganligi jamiyat keng qatlamlarining siyosiy ongiga, "yuqoridagilar"ning **siyosiy** ko'rsatmalariga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong sosial subyektlar (individlar, guruhlar, sinflar, ijtimoiy birliklar)ning ijtimoiy hayotning siyosiy sohasi haqidagi bilimlari, tasavvurlari va baholashlarining yig'indisidan iboratdir. U bir qator funksiyalarni bilish, baholash, yo'naltirish, tartibga solish kabi funksiyalarni bajarish bilan jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi

Siyosiy ong — murakkab va ko'p qirrali hodisa. U turli-tuman darajalar va shakllarda, avvalo, maxsus va ommaviy siyosiy ong shakllarida mavjud bo'ladi.

Maxsus siyosiy ong — bu qoida bo'yicha, mafkuraviy jihatdan bir xil bo'lgan ongdir. Dastlab u kam sonli kishilarning mulki hisoblanadi. Uning tashuvchilari — siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy tashkilotlar va birlashmalardir. Ular muayyan yo'nalish bo'yicha ommaviy ongni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat zarurligini belgilaydi.

Maxsus siyosiy ongda bosh masala — ijtimoiy guruhdir, qatlamlarning oddiy vakillari ongiga muayyan ko'rsatmalarni, qoidalarni ishlab chiqish, rivojlantirish va joriy etishdir.

Ommaviy siyosii ong jamiyat ehtiyojlarining darajasi va mazmunini bevosita ifoda etadi. U siyosiy voqyelik haqidagi jamiyat bilimlarining xarakterini ham aks ettiradi. Bunday bilimlar, bir tomondan, turli mafkuralar tomonidan ishlab chiqiladi va siyosiy ongda mustahkamlanadi.

Ikkinchi tomondan esa ushbu bilimlar ijtimoiy guruhlarning amaliy faoliyati tomonidan qo'lga kiritiladi.

Ommaviy siyosiy ong aniq-tarixiy va o'zgaruvchan xarakterga ega. U tez-tez qo'tarilish va pasayish davrlarini o'z boshidan kechiradi. Unga ko'plab omillar: mamlakatdagi siyosiy holatlar, siyosiy tizim, rejim, u yoki bu partiyalarning

siyosiy yo'li va taktik-strategik faoliyati, turli **ijtimoiy** alg'ov-dalg'ovlar, muayyan **tarixiy** vaziyatning mazmuni va boshqalar ta'sir o'tkazib turadi.

Maxsus siyosiy ong va ommaviy siyosiy ong o'zaro chambarchas bog'langandir. Real hayotda ular o'rtasidagi aloqalariing turli variantlari bo'lishi mumkin.

Ayrim vaqtlarda muayyan siyosiy partiya tomonidan nazariy va amaliy hayotga singdirilgan qoidalar, urf-odatlar jamiyatning siyosiy ongida uzoq vaqtgacha asorat sifatida saqlanib qolishi mumkin. Bu xolni ko'plab siyosiy arboblardan, donishmandlardan ta'kidlaganlar.

Teskari vaziyat ham bo'lishi mumkin: ommaviy siyosiy ongda u yoki bu siyosiy harakatning, qandaydir siyosiy qarorni qabul qilishning zarurligi e'tirof etiladi, maxsus ong esa bunga tayyor emas. Masalan, mamlakatda ko'p partiyaviylikning zarurligi haqidagi g'oya jamiyatda oddiydek o'z tasdig'ini topgan bo'lsa ham, kerak bo'lgan tashabbus hukmron partiya, davlat tomonidan ancha kechikib qabul qilinishi mumkin.

O'z-o'zidan yaqqol ko'rinib turibdiki, jamiyatning konstruktiv va barqaror ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun maxsus va ommaviy siyosiy ongning o'zaro harakati juda muhim. Ularning kishilar va jamiyatning, uni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlarning ichki dunyosidagi, kayfiyatidagi o'zgartirishlarga birgalikdagi aniq va o'z vaqtidagi reaksiyasi, javobi bundan ham muhimroq.

Siyosiy ong nazariy va empirik daraja va shakl-larga ajraladi.

Nazariy siyosiy ong — bu siyosiy xarakterga ega bo'lgan turli turdagi g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlardir. Uning belgilari:

— yaxlitlik;

— sistemalanganlik;

bashorat qilishga qobiliyati bilan bog'liq.

Nazariy siyosiy ongning hususiyati — uning iqqisodiy, huquqiy, harbiy-strategik va boshqa reallik bilan chambarchas bog'liqligidir. Siyosiy ongning ushbu shakli siyosiy nazariyalarning kerakli siyosiy dasturlar, deklarasiyalar va doktrinalar bo'lib shakllanganligi bilan ham farq qiladi.

Amaliyotda joriy etiladigan ushbu dasturlar, dek-larasiyalar va doktrinalar siyosiy ongni siyosatning yetakchi elementi sifatida mustahkamlab qo'yadilar. Siyosiy munosabatlar va siyosiy institutlar, tash-kilotlar va muassasalarning xarakteri o'z navbatida bu elementga bog'liq bo'ladi.

Nazariy ong darajasi va shaklida siyosatni anglash quyidagilarni:

- a) uning muhim maqsadlari va ham fundamental (strategik), ham kundalik (taktik) vazifalarni qo'yish va hal etishga;
- b) ularga erishishning vositalari va usullarini aniklashga;
- v) dolzarb muammolarni hal qilishda tashkiliy-siyosiy jihatdan ta'min etishning yo'nalishlari va yo'llarini aniklab olishga;
- g) siyosiy qarorlar va maqsadli dasturlarning bajarilishi ustidan sosial nazoratga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishga;
- d) amaliy tajribani hisobga olgan holda siyosatga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Empirik siyosiy ong — bu bevosita amaliyotga, siyosiy jarayonda aloxida kishilarning, mayda va yirik sosial birliklarning faol ishtirok etishlariga asoslangan siyosiy ong darajasi va shaklidir. U nazariy siyosiy ongning zamini bo'lib xizmat qiladi.

Empirik siyosiy ong- siyosiy voqyelikni hissiyotlar, tasavvurlar, illyuziyalar, kechinmalar shaklida aks ettiradi. U, birinchidan, ommada siyosat va siyosiy arboblarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, jamiyat siyosiy madaniyatining ma'naviy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy ong «ijtimoiy-siyosiy ong» va oddiy (kundalik) ong daraja va shakliga ham ajraladi.

Ijtimoiy-siyosiy ong- bu rasmiy siyosatda ishlab chiqiladigan, asoslanadigan, amalga oshiriladigan va siyosiy munosabatlar tartibiga solinadigan siyosiy ong darajasidir. Uning tashuvchilari davlat, siyosiy institutlardir. Bu institutlar siyosiy munosabatlarni turli qonun loyixalari, dasturlar, qarorlar, konstitutsiya va ularning moddalariga tuzatishlar va

boshqalarni ishlab chiqish, qabul qilish, hayotda tadbiq etish yo'li bilan tartibga soladi.

Bu ong darajasining eng muhim belgisi- turli siyosiy kuchlarning umumiy manfaatlarini ifoda etishga intilishidir. Bu darajada mavjud siyosiy tartiblar va boshqarish prinsiplari izchillik, qat'iyatlilik bilan himoya qilinadi, jamoatchilik fikrining davlat institutlari olib borayotgan siyosatga moslashtirilishi sodir bo'ladi.

Siyosiy ong uchun siyosiy voqyelikni oqilona pragmatik uslubda idrok etish –hokimiyatni idora etish, ushlab turish jarayonida muvaffaqiyatga erishishni mo'ljallash ham xarakterli xususiyatdir.

Kundalik siyosiy ong- bu ijtimoiy qatlam yoki kishilar guruxlarning kundalik hayotida bevosita paydo bo'ladigan siyosiy hayot to'g'risidagi ilk, sodda tassavurlar yig'indisi. U mazmuniga ko'ra ko'p jixatdan empirik ongga o'xshashdir. Lekin, kundalik ong empirik ongdan farq qiladi. U muayyan g'oyaviy va nazariy elementlarga ega.

Kundalik ongga ravshan ko'zga tashlanadigan sosial- ruxiy belgilar: ziddiyatlikka, o'zgaruvchanlik, tizimga ko'rmaganlik, hissiyot, kayfiyat, ehtiroslar xosdir. Bu unga o'ziga xos dinamiklik (tez o'zgaruvchanlik) siyosiy vaziyatning o'zgarishini aniq his etishni baxshida etadi.

Siyosiy ongning oddiy darajasi rasionallik va emosionallikning, jonli hayot tajribasi va an'analarining, daqiqalik kayfiyat va barqaror stereotiplarining o'zaro bog'liqligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham u beqaror, hissiyot va bevosita tajribaning o'zgarishiga bog'liq tebranishlar mahkum etildi.

Shunday qilib, siyosiy ong murakkab va ko'p qirrali hodisa. U nafaqat siyosiy voqyelikni aks ettiradi, balki uni ijod qiladi, o'zgartiradi.

Siyosiy ong insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar, tarixiy tajriba, milliy qadiriyaatlar, siyosiy hayotni idrok etishga qaratilgan urf-odat, an'analar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoitlar mavjud bo'lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. U siyosatning obyektligicha qolaveradi. Siyosiy ongning shakllanishi- murakkab

jarayon. Bu avvalo, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit demokratik siyosiy tartibotning mavjudligiga bog'liq. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustaxkamlanib borilmasa insonda demokratik, yuksak siyosiy ong shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan avtoritar, ma'muriy-buyruqbozlik siyosiy tizimi esa inson siyosiy ongining shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha bu tizim insonni kullikka maxkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqlik, befarqligini tug'diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uning mustaxkamlanib borishi-insonda siyosiy ong shakllanishining hal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'barlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson siyosiy hayotda shunchalik faol ishtirok etadi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatda faqat demokratik siyosiy tizimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiyotining taraqqiy etib borishi darajasiga, xalqning moddiy farovonligiga ko'p jixatdan bog'liqdir.

Jamiyat iqtisodiyotning yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik jamiyatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza bo'lib xizmat qiladi. Demokratiya negizida samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan umumta'lim va kasb tayyorgarligining yuqori darajasiga erishish mumkin. Davlat xizmati, siyosiy faoliyatga tezda boy bo'lib ketish maqsadida shaxsiy manfaatlarini qondirishning vositasi sifatida qarash boshqarish tizimi uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotning taraqqiy etishi, xalqning farovonligiga erishuvi-siyosiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biridir. Jamiyat qanchalik iqtisodiy jixatdan taraqqiy etib borsa, u idora qilishning demokratik shakllariga shunchalik ochiq bo'ladi. Xalq qanchalik boy va badavlat, farovon yashasa, u shunchalik demokratiyani qo'llab quvvatlaydi va ximoya qiladi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatning ma'naviy, ma'rifiy rivojlanishiga ko'p jixatdan bog'liqdir.

Sababi, ma'naviy, ma'rifiy taraqqiy etmagan jamiyat xech qachon insonni siyosat subyekti sifatida shakllantira olmaydi. Bunday jamiyat va uning fuqarolari siyosiy manipulyasiya-firibgarlikning obyekt bo'lib qolaveradi. Ma'naviy qashshoq, savodsiz bo'lgan inson jamiyat anglagan siyosatdan tashqarida bo'ladi. U siyosiy xarakatlarning subyekti emas, balki obyekt bo'lib qoladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ma'naviy, ma'rifiy soxasi insonning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa u shunchalik siyosiy bilimdon bo'ladi. Eng asosiysi, demokratik yo'l, ko'rsatmalar, xatti-xarakatlarga moyillik bo'ladi. Xususan, mukammal ta'lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr toqatli, mexr oqibatli bo'lishiga yordam beradi, ekstremistik g'oyalarga aloqador bo'lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo'lini tanlash qobiliyatini oshiradi.

Yuqori ma'lumotga ega bo'lgan shaxs xukumatning qarorlarini, ko'rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarini chuqur biladi, keng doiradagi masalalar bo'yicha o'zining mustaqil fikriga ega bo'ladi. Inson qanchalik ma'lumotli bo'lsa uning siyosiy baxs-munozaralarida ishtirok etish extimoli shunchalik yuqori bo'ladi. U o'zini kichik bir muruvvat emas, balki xukumatning faol subyekti va unga ta'sir ko'rsatishiga qodir inson, deb xisoblaydi. Individ qanchalik ma'lumotli bo'lsa, u muayyan jamiyat tashkilotlarining faol a'zosi bo'lishi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy-siyosiy muxitga ishonch bildirishi extimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy omillar, shart-sharoitlar negizida shakllanadi. Bu omillar inson siyosiy faoliyatining rivojlanishiga, uning siyosiy subyekti sifatidagi potensial fazilatlarining ochilishiga yordam beradi.

Siyosiy madaniyat - jamiyat siyosiy tizimining eng muxim elementlaridan biri sifatida muxim o'ringa ega.

Jamiyatda siyosiy madaniyatning nechog'lik rivojlanganlik darajasiga qarab uning siyosiy tizimi qanchalik mukammal tashkil qilinganligiga baxo berishi mumkin.

Siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy jixatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarining shakllanishi, faoliyat ko'rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinishi jarayoniga xal qiluvchi, ta'sir o'tkazuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyat o'zining mazkur jixatlari bilan mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustaxkamlash, jamiyatni demokratiyalashtirish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish jarayonida, axolini ma'naviy jixatdan yuksaltirishda muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy madaniyat umummilliy madaniyatning o'ziga xos, shu bilan birgalikda ajralmas qismi xisoblanadi. Siyosiy madaniyat, avvalam bor, katta va kichik ijtimoiy guruxlarning, umuman insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida olgan siyosiy tajribasidir. Siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Ayni bir paytda siyosiy madaniyat bo'sh joyda o'z-o'zidan paydo bo'lib xam qolmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar bor.

Siyosiy madaniyat tushunchasi qachon paydo bo'lgan, uning mohiyati nimalarda o'zining aniqroq ifodasini topadi?

Insonlarning bevosita ma'naviy xayoti, qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan bog'liq xolda namoyon bo'luvchi siyosiy xodisa bo'lgan siyosiy madaniyat siyosatning o'zi kabi uzoq tarixga egadir. Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda qadimgi mutafakkirlar tomonidan xam ma'lum darajada talqin qilingan. Siyosat olamining buyuk donishmandlari bo'lmish Konfusiy, Arastu, Aflotun, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli va boshqalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

«Siyosiy madaniyat» terminining o'zi esa ancha keyinroq paydo bo'ldi. Uni ilmiy muomalaga XVIII asrda nemis faylasufi va ma'rifatparvari I.Gerder olib kirgan degan qarash mavjud.

Empirik asosga ega bo'lgan siyosiy madaniyat to'g'risidagi ilmiy konsepsiyalar esa g'arbda XX asrning o'rtalariga kelibgina shakllana boshladi.

Bunda yirik xalqaro tadqiqotchilar bo'lgan G.Almond, X.Fayer, S.Verba, A.Lipset, M.Dyuverje, U.Razenbaum, G.Pauyell, L.Pay kabilarning xissalari bor.

Masalan, xozirgi zamon politologiyasida «siyosiy madaniyat» tushunchasini ishlatgan Amerikalik nazariyotchi X.Fayerning 1956 yilda bosilib chiqqan «Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi» nomli kitobi siyosiy madaniyatning mohiyatini anglash yo'lida qo'yilgan muxim qadamlardan bo'lgan bo'lsa, undan sal keyinroq G.Almond va S.Verba besh mamlakat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tadqiq qilish asosida o'zlarining «Fuqarolik madaniyati» (1963) nomli maktabni e'lon qildi. L.Pay bilan S.Verba o'nta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyatini o'rganishi asosida «Siyosiy madaniyat va siyosiy tadqiqot» (1965) nomli asarini chop ettirdilar.

Bu ilmiy ish siyosiy madaniyatning xozirgi zamon konsepsiyasining shakllanishiga muxim turtki bo'ldi xamda siyosiy madaniyat nazariyasining kelajakdagi taraqqiyotiga ma'lum darajada zamin tayyorlab berdi.

Siyosiy madaniyat tushunchasini talqin qilishda turlicha yondoshuvlar mavjud. Bu tabiiy xol albatta, lekin ularning barchasini bir-biriga bog'lab turuvchi umumiy jixat xam mavjud. Bu siyosiy madaniyatning jamiyat siyosiy-ijtimoiy jamiyatlari, siyosiy institutlari bilan bevosita uzviyligi, unga bo'lgan munosabat xolatidir.

Milliy siyosiy madaniyatni tarbiyalash zarurati.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimiz huquqiy demokratik davlatni, pirovardida fuqarolik jamiyatini shakllantirishdek buyuk maqsadlar, bilan yashamoqda. Bu borada istiqlolimizga erishgandan keyin o'tgan yillar ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Milliy siyosiy madaniyat, xalqning siyosiy tafakkur tarzining siyosiy hayotni idrok etishda, uning tarixiy negizlari, milliy davlatchiligi bilan bog'liq an'analari, xalqning ma'naviy mulkiga aylangan siyosiy qadriyatlari uning siyosiy hokimiyatga bo'lgan munosabatida, siyosiy voqyealarga baho berishda, unga ishtirok etishda yoki etmaslik holatlari orqali namoyon bo'ladi.

Milliy davlatchilikni shakllantirish, yangi iqtisodiy munosabatlar hamda huquqiy tizimning shakllanishi, mustaqil taraqqiyotimizning hal qiluvchi asosiga aylandi.

Ma'lumki, mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar oxir-oqibatda inson manfaatlarini mukammal ravishda ro'yobga chiqarish, xalqimizga farovon turmush tarzini yaratib berishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirmoqda. Ushbu vazifalarning qisqa muddatlarda muvaffaqiyatli hal qilinishi bugungi kunda davlatimiz, jamiyatimiz har bir a'zosining bu boradagi sobitqadam va ongli faoliyati bilan ham bog'liq.

Hozirgi zamonning mafkuralari qatorida mil-liy mafkuralar muhim o'rinni egallaydi. Ular kelib chiqishiga, mazmun-mohiyatiga ko'ra boshqa mafkuralardan farq qiladi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson huquqlari va erkinliklarini, odamlarimiz ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish kerak.

O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratish darkor.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bizning mamlakatimizda istiqbolimiz sharofati bilan insonni jamiyat siyosiy va ma'naviy hayotini bevosita faol ishtirokchisiga aylantirish hamda uning siyo-siy madaniyat darajasini yuksaltirish uchun barcha zarur siyosiy, huquqiy, ma'naviy va mafkuraviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ma'lumki, jamiyat milliy siyosiy madaniyatining shakllanishi ko'p omillarga bog'liq. Bunda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, milliy qadriyatlarning o'zni nihoyatda katga bo'ladi. Shu jihatdan olib qara-ganda, boy ma'naviy madaniyat, noyob milliy qadriyatlar, bebaho falsafiy ta'limotlardan baxra olib, shakllangan o'zbek xalqida, siyosiy madaniyatning yuksak cho'qqilariga erishish

uchun ulkan salohiyat mavjud. Jamiyatimiz siyosiy madaniyatining shakllanishida mamlakatimizning milliy istiqlol g'oyasi bugungi kunda muhim o'rin egallamoqda.

Ma'lumki, istiqlolimiz sharofati bilan shakllanayotgan mamlakatimizning milliy istiqlol g'oyasi har bir insonga erkin fikrlash, o'z baxt-saodati, farovon kelajagi uchun erkin ijtimoiy faoliyat qilish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Prezidentimizning bevosita sa'y-harakatlari bilan o'zining nazariy asosini topgan O'zbekiston jamiyatining g'oyasi xalqimizning manfaatlarini to'liq ravishda o'zida mujassamlashtirgan hayotiy manbadir.

"Milliy siyosiy madaniyat, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab oladi.

Jamiyatimizning milliy siyosiy madaniyati o'zining mana shu xislatlari bilan odamlarimiz siyosiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida asosiy ma'naviy oziq bo'lib xizmat qiladi. Chunki siyosiy madaniyat ayni paytda aniq maslak asosida, inson o'zi tayanib yashaydigan qadriyatlar asosida shakllanadi.

Siyosiy jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim tuzulishi, turli ijtimoiy kuchlar va guruxlarning o'rni va roli to'g'risidagi g'oyalar, uning hokimiyatga ega bo'lishi, undan foydalanish yo'llari, mexanizmlari to'g'risidagi qarashlarni amalga oshirishga bo'lgan ishonch, maqsadlar yo'lidagi faoliyatdir.

Siyosiy mafkura va uning ko'rinishlari.

"Mafkura" atamasi yunoncha ideya va logos so'zlarning birikmasidan tashkil topgan, g'oyalar xaqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy determinizm ta'limoti mafkuraviy oqimlar, ijtimoiy guruxlarning moddiy shart-sharoitlari bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqadi. U bu oqimlarni umuman jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi tasavvurlar, g'oyalar sifatida tavsiflaydi. Ijtimoiy guruhning jamiyatda tutgan o'rniga qo'ra iqtisodiy determinizm, mafkuraning nazariy bilim vazifasini bajarishi mumkinligini ilgari suradi.

XX asr boshlaridayoq M.Veber mafkurani va boshqa g'oyaviy, diniy tuzilmalarni ko'r-ko'rona ishonish sohasiga kiritgan edi. Bu bilan u mafkuraning ilmiyligi masalasini qo'yishni ham inkor etadi.

Shu sohaning taniqdi mutaxassisi K. Mangeym, M. Veberdan keyin har qanday mafkurani voqyelikning neadekvat (noto'g'ri), bir tomonlama aks etishi sifatida, voqyealarning haqiqiy ahvolini ongli ravishda yashiradigan g'oyalar yig'indisi sifatida olib qaraydi. Mafkuraning ijtimoiy-tarixiy manbalarini chetga surib qo'yib, uni jamoani birlashtiruvchi qurol sifatida (O.Lemberg, T.Parsons) haddan tashqari funksional talqin qilishlar ham keng tarqalgan.

Mafkurani ayrim guruhlar va individlarning psixologiyasidan (R.Payps, D.Braun) iborat qilib ko'rsatish hollari ham kam emas. Shu bilan birga mafkurani xalqning, millatning dunyodagi o'rnini, man-faatlarini, orzu-intilishlarini ifodalaydigan g'oya, o'tmish va kelajakni bog'laydigan ko'prik sifatida ta'riflashlar ham mavjud.

Siyosiy mafkura — u yoki bu ijtimoiy guruhniig maqsadlari, orzu-intilishlari va manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi hokimiyatdan foydalanishning muayyan vazifalariga yo'naltirilgan tizimlashgan g'oyalar, qarashlar yig'indisidir. Siyosiy mafkura — bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funksiyalarni bajaradi. Ulardan quyidagilarni ajratish mumkin:

1)Mo'ljallash. Bu funksiya shunda ifodalanadi-ki, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs, hokimiyat haqidagi fundamental tasavvurlarni o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no-mazmuni tizimini va mo'ljalini ko'rsatib beradi.

2)Safarbar etish. Fozil jamiyat idealini taklif qila turib siyosiy mafkura siyosiy faoliyatning bevosita motivi sifatida chiqadi va uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarni safarbar qiladi.

3)Birlashtirish. Taklif etilayotgan dunyoning fundamental kartinasi chegarasida siyosiy harakatga ma'no-mazmun bera turib, siyosiy mafkura unga

shunday ahamiyat beradiki, u o'zining miqyosi bilan har qanday individual yoki guruhii manfaatdan ustun turadi. Siyosiy mafkura birlashtiruvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi.

4)Amortizasiyalash. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ ehtiyojlari va ularni qondirishning real imkoniyatlari o'rtasida nomuvofiklik vujudga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

5)Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlariki ifoda *etish* va himoyalash. Buning ma'nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlari bilan o'zaro munosabatda sog'lom raqobat murosa yoki kelishuv, ayrim xollarda ixtilofda bo'lishi mumkin.

Mafkuraning funksiyasi - aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, unga jamiyatning bugungi va kelgusidagi taraqqiyotini baholash, o'zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo'ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Mafkura amalga oshirmoqchi bo'lgan yo'lning oqilona va xolisona obrazini yaratishga, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatiga mos kelishiga intiladi. Bu borada mafkura u yoki bu ideallar va qadriyatlarni targ'ibot qilish bilan chegaralanib qolmay, balki fuqarolar, partiyalar va boshqa siyosiy tuzilmalarning maqsadga muvofiq faoliyatini rag'batlantirish bilan ham shug'ullanadi.

Mafkura o'zining siyosiy funksiyalarini bajarishi bilan jamiyat yo qandaydir ijtimoiy guruh manfaatlari asosida, yoki aholining muayyan ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga tayanmaydigan ongli ravishda ishlab chiqilgan maqsadlari negizida jiplashtirish, birlashtirishga intiladi. Aholini real birlashtirish qobiliyati mafkuraning g'oyasi va qoidalari kishilarning turmush tarzi haqidagi kundalik qarashlari va tasavvurlariga, maqsadlariga qanchalik mos kelishga bog'liqdir.

Har qanday mafkura oqilona, nazariy asoslangan qoidalardan tashqari aholiga faqat ishonish uchun taklif qilinadigan maqsad va ideallarni ham qamrab oladi.

Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emas. U nazariy-konseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalarida amal qiladi. Nazariy-konsentual darajada u yoki bu sinf, ijtimoiy qatlam, millat, davlatning manfaatlari va

ideallarini ochib beruvchi asosiy qoidalar qaror toptiriladi; dasturiy-direktivalik darajada ijtimoiy — falsafiy prinsiplari va ideallar siyosiy elitaning aniq dasturlari, shoirlari va talablariga aylantiriladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ommaning siyosiy xulq-atvorini rag'batlantirish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Mafkura amal qilishning ushbu darajasi «siyosatning yaratuvchi elementi» deb ham talqin etiladi.

Xulq-atvorlik darajada mazkur mafkura maqsadlari va prinsiplari fuqarolar tomonidan o'zlashtiriladi hamda ularning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishining u yoki bu shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu darajada mafkura kishilarning xatti-harakatiga aylanib ularni jipslashtiradi, birlashtiradi, muayyan yo'lga yo'naltiradi, safarbar etadi. Sayosiy mafkuralarning siyosiy mafkura zamon va ko'rinishlarni makondan tashqarida bo'lgan hodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq aniq ijtimoiy mazmunga ega.

Har bir tarixiy davr o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas. U ham ko'plab mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlari: liberalizm, konservatizm, sosial-demokratiya va boshqalardir.

Hozirgi davrda eng yirik va ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlardan biri — **liberalizmdir**. Bu atama lotincha «liberalis» so'zidan olingan bo'lib «erkin» degan ma'noni anglatadi.

Liberalizm XVII-XVIII asrda ma'rifatparvarlik davri g'oyalari negizida tarix saxnasiga chiqib kelayotgan burjuaziya sinfining mafkurasi sifatida shakllandi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J. Lokk, T.Gobbs, Sh.Monteske, A.Smit, T.Jefferson, D.Mill va boshkalarining asarlarida asoslab beriladi.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi barcha kishilarning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi prinsiplar tashkil etadi.

Liberalizm hokimiyatning taqsimlanishi, siyosiy plyuralizm, elitalar raqobati, qonunning ustuvorligini e'tirof etadi. U fuqarolar huquqlari va

erkinliklarini ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi, deb biladi. Mazkur mafkuraning barcha ko'rinishlarida inson shaxsining individual erkinligi, qadr-qimmati, boshqa kishilarning qarashlari va e'tiqodlariga sabr-chidamli bo'lishlik talablari doimo himoya qilinib kelinadi. Shaxs erkinligini hurmat qilish bilan bog'lab liberalizm o'zining g'oyaviy ko'rsatmalarida individualizm va insonparvarlik prinsiplarini uyg'un ravishda mujassamlashtiradi.

Erkinlik prinsipi liberalizm tarafdorlari tomonidan davlat cheklashlaridan erkin bo'lishlik sifatida talqin etiladi. Bu g'oyani angliyalik mutafakkirlar J.Lokk va D.Mill yaxshi ifoda etadilar. Jumladan, D.Milya bu g'oyani quyidagicha izohlaydi: «Inson o'ziga nima kerakligini har qanday hukumatdan ko'ra o'zi yaxshi biladi».

Liberalizm tarafdorlari uchun erkinlik uchun kurash insonning iqtisodiy, jismoniy va intellektual erkinligi yo'lidagi barcha to'siqlarni, cheklashlarni tugatish uchun kurashishni anglatadi. Ular hokimiyatni meros qilib qoldirishning barcha shakllariga va tabaqaviy imtiyozlarga qarshi chiqadilar. Bu ko'rsatmalar negizida «davlat — tunggi qorovul», degan g'oya qaror topadi. Ushbu g'oyaning ma'nosi shuki, davlat faqat ijtimoiy tartibni qo'riqlash va mamlakatni tashqaridan bo'ladigan taxdiddan himoya qilishni ta'minlaydigan eng kerakli vazifalar bilan ta'minlanishi kerak. Shuning uchun aynan liberalizmga fuqarolik jamiyatining davlat ustidan ustuvorligi g'oyasi qaror topdi va amalga oshirilmoqda. J. Lokk fuqarolik jamiyati bu doimiy kattalik, davlat esa undan kelib chiquvchidir, deb e'tirof etgan edi.

II.2.Siyosiy hokimiyat siyosiy psixologiyaning asosiy obykti sifatida.

Hokimiyat fenomeni borliqdagi har qanday hodisa kabi biror bir fanning predmeti bo'la olmaydi. Hokimiyat muammosini politologiya ham, yurisprudensiya ham, tarix ham, shu bilan bir qatorda psixologiya ham o'rganadi. Hokimiyatni psixologik tahlilida hokimiyatning munosabatlari emas, balki hokimiyat institutlarini qabul qilish, hokimiyatga ega bo'lgan figuralarga munosabatlar, hokimiyatga ega bo'lganlardan tobekik darajasini anglash va boshqalarni ko'rish mumkin.

Hokimiyatning subyektiv jihati - bu hokimiyat subyektlarining organi va darajasining o'z vazifalarini bajarishga tayyorligi va faol qatnashishidir.

Siyosiy hokimiyat psixologiyasi - bu institut sifatida mexanizm, sharoit va ta'lim omillari. Bu va boshqa hokimlik har bir jamiyatga zarur va hokimiyatsiz jamiyat etnograflariga noma'lum, xuddi jamiyat oilasiz va xususiy mulksizdek hisoblanadi. Davlat (grant) fuqarolariga nisbatan Prezident hokimlik qiladi. Jumladan, ota - onalar farzandiga, ish yurituvchi ishchilarga, sevishganlar bir – birlariga nisbatan kabilar.

Dominant intilishlikka birinchi sabablaridan biri, bu taxminan uning tug'ma xarakterida.

Aristotel fikri bo'yicha bir xil odamlar tabiatdan hokimlik qiladilar, boshqalar ularga bo'ysinadilar. Gobsning fikricha, "Butun ozamzodning suyanishi" bu doimiy ehtiyoj, katta - katta lavozimlarni egallashga bo'lgan istak. Bu istak odamzodning umrining yakuni bilan, ya'ni o'limi bilan tugallanadi. Fransuz filosofi K.A.Gelvesiy hokimlikka intilish manbalarini, rohatni sevishda va bu asnoda "odamning tabiatini ildizida", deb xulosa qilgan.

Hozirgi zamonda keng tarqalgan konsepsiyalardan biri intiqomi ta'rifi bo'yicha insonni biologik xususiyatga kiruvchi hukumatga intilishidir. So'zsiz \ar bir insonda hayvonlardagidek tug'ma xulqni hamda instinktlarni ham boshqaruvchi tug'ma regulyator (boshqarish) bor. Ammo ularni rollari asosli ravishda turlidir.

Biologik tabiatga ega bo'lgan xohish va istaklar odamlarda tabiiylik xususiyatiga ega bo'lsa ham ularning hayot faoliyatini asosini tashkil etadi. Ammo ular inson motivlarini asosini tashkil etmaydi.

Hokimiyatning kompensatorlik konsepsiyasi boshqa keng tarqalgan hukmronlik motivasiyasi kompensator konsepsiyasidir. Uning asoschisi A.Adlerdir. Insonning intilishini dominasiya (ustuvorlik) bilan bog'lagan. Real va xayolan o'ylab topilgan kamchiliklarni yechishga urinish, bu asosida G.Lassuel tomonidan keng tarqalgan siyosiy faoliyatlar nazariyasi ishlab chiqildi, ya'ni odamlar hokimiyatga o'zlaridagi kamchiliklarni o'rnini bosuvchi qadriyat sifatida intiladilar. Bunda hokimiyat va u bilan bog'liq bo'lgan har qanday vositalar odamlarni o'zlarini oldilarida yuqori darajada ko'tarilishiga o'ziga bergan baxosi, o'zgarishga yordam beruvchi vosita sifatida amalga oshiriladi. Shunga o'xshash fikrlarni psixoanaliz maktabi vakili S.Xorni ham bildirgan. Uning fikricha, ko'p odamlar xavotirli, o'zini kichkina, kamsitilgan va xo'rlangan odam sifatida qabul qilishlari mansubdir. Hukumatga intilish psixik holatni muvozanatga keltirish yo'li bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy hokimiyatni kompensasiya tamoyili orqali motivasiyani yetarlicha asoslab bermasligi bir necha sabablarga ega. Birinchi navbatda kompensasiyaga bir qancha yo'llar bilan boyish orqali erishish. Umumiy hollarda bunday kompensatorlarni istashda jamiyatda bor bo'lgan qadriyatlar tizimi katta ta'sir ko'rsatadi va bu odamlarni o'ziga o'zi bergan bahoni yuqori darajasiga ko'taradi. Bir tomondan, inson hokimiyatga intilsa ham bunday intilishni u siyosatda emas, boshqa sohalarda yuqori ta'sirchanlikda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, armiyada va b.

G.Lassuelining fikricha, hokimiyatga intilish faqat siyosiy sohada bo'ladimi, yo'qmi, kognitiv (bilish) omillar muhim rol o'ynaydi.

Kompensasiyani hokimiyat orqali qondirilishi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Biron bir yo'lni ishlatilishiga nisbatan ko'proq foyda olinsa

2. Hokimiyat orqali o'ziga o'zi baho berishining ko'tarilishi bilan bo'lgan ijobiy tajriba.

Inson va hokimiyat: psixologik o'lchov.

Hayotimizda turli hokimiyatlar bilan to'qnashamiz, ular jamiyatni tashkil qiluvchi mexanizmida asosiy rolni o'ynaydi. Shuning uchun ingliz faylasufi B.Rossal hokimiyat tushunchasini tabiiy fanlarda energiya kategoriyasi bilan solishtiradi. Hozirgi zamonda bu tushunchaning bir nechta yondashuvlari mavjud. Biz hokimiyat deb turli kuchlarni vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarni boshqa ijtimoiy subyektlarga ta'sir qilish qobiliyatini tushunamiz. Hokimiyat doimo hokimlikka ega bo'lgan va hokimiyat ta'siriga tushuvchilar orasidagi munosabatni tushunamiz. Siyosiy hokimiyat munosabatlari jamiyatdagi obyektiv reallikni namoyon qiladi. Ular his- tuyg'ularda, qonuniy normalarda, boshqaruv organlarida va iqtisodiy - siyosiy omillar orqali namoyon bo'ladi.

Bu nuqtai nazarni ko'rib chiqilganda, hokimiyat quyidagi terminlarda berilishi maqsadga muvofiqdir, siyosiy rejim, hokimiyatning bo'linishi, hokimiyat darajasi. Ammo hokimiyatni subyekti bu konkret odamdir va uning hokimiyatga bo'lgan munosabati turlichadir. Turli hokimiyatlarga ega bo'lgan odam hokimiyat bosimi ostida qolib ketishi yoki yanada ko'proq ta'sir etish kuchini egallashga harakat qilishi mumkin.

Amerikalik siyosatshunos R.Dalling aytishicha, mana shunday psixologik xususiyatlar bir xil bo'lgan odamlarning turli hokimiyatdan foydalanish resurslarini va imkoniyatlarini belgilaydi. Boshqa tomondan esa inson hokimiyatni obyekt bo'lib o'zini subyektliligini yo'qotmasdan avtomatik bo'lmagan holda hokimiyatga bo'ysunadi. Hokimiyat nafaqat oilada, balki tashkilotlarda ham bo'lib, asosan u siyosiy sohada ko'proq namoyon bo'ladi. Siyosat va hokimiyat qadimdan o'ziga yarasha kontinium sifatida ko'rib kelingan. Siyosatni asosiy funksiyasi bo'lgan ijtimoiy manfaatlarini moslashtirish hokimiyatsiz amalga oshirilmaydi. Shuning uchun siyosiy hokimiyat juda katta sonli fuqarolarni bo'sundirishni o'z ichiga oladi.

Bu bog'liqlikni inobatga olib nemis faylasufi. E. Shpranger siyosat va hokimiyatni ma'no jihatdan birlashtirib "Siyosiy tip" degan tushunchani kiritadi. U "Odamlar uchun yetakchi qadriyat hokimiyatda bo'lganlarni biz siyosiy tip deymiz"-deb ta'kidlaydi. Oddiy fuqarolardan oddiy odamlarning farqi nimada? degan savolga javob berishda G. Lassuell shu ta'rifga tayanadi. Amerikalik olimning fikricha, "Siyosiy odamning" asosiy xususiyati bu uning hokimiyatni diqqatini qaratish, ya'ni boshqa qadriyatlarga nisbatan hokimiyatga e'tiborini qaratishdir.

Hokimiyatning boshqa bir qator tahliliga qaratilgan yondoshuvda psixologik xususiyatni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, hokimiyatni maqsad sifatida ko'rib chiqishda asosan uning motivlar mexanizmini yoki shaxsni hokimiyat ta'sirida o'zgarishini maqsadga yetkazuvchi instrument sifatida, hokimlik munosabatlarining tizimi, o'ziga xos fenomeni sifatidagilardir.

Agar hokimiyat motivlar instrumental vositasi bo'lib xizmat qilsa, unga qarama - qarshi bo'lgan hollarda hokimiyat shaxsiy maqsad sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda yetakchi rolni hokimiyat bilan bog'liq bo'lgan ijobiy emosional his - tuyg'ular tashkil qiladi. Veberning aytishicha, hokimiyatga intilish hokimiyatga ega bo'lishgina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan obro' - e'tibordan zavqlanishdir.

Uni fikricha, bunday tuyg'u tarixiy muhim jarayonlarni qo'lda ushlab turish, muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan his- tuyg'ular bilan bog'liqdir. Bunda mazmun jihatidan motivlar asosida biror bir darajaga mavqega erishish emas, balki siyosat oshkora namoyish qilishni xohlamaydigan siyosatchida ham namoyon bo'lishi mumkin. Hokimiyatning xulq - atvor bilan bog'liq bo'lgan motivlarini ikki asosiy yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

1. Hokimiyatga ega bo'lish va uning zahiralarni kengaytirish yoki o'zini kuchli his qilish (X.Xekxauzin)
2. Bu zahiralarni amaliyotga tadbiq qilish, xohishi, o'zgaruvchi jihati.

Hokimiyatda qatnashish darajasi quyidagilardir:

Bevosita qatnashuvchilar: Davlat, siyosiy mudirlar, elita, partiyalar, jamoa birlashmalari va harakatlar.

Bilvosita qatnashuvchilar: yirik ijtimoiy guruhlar va uyushmalar, turli maqsaddagi guruhlar. Buni quyidagi jadvaldan tushunish mumkin:

Harakatlantiruvchi kuch	Hokimiyat motivlari
-------------------------	---------------------

Siyosiy vositalar va metodlar imtiyozlarni ishlatgan holda jamiyatning faoliyatiga siyosiy ta'sir etish va boshqarishda subyektning ongli burchlari va ehtiyojlaridan iborat.

Siyosatda shaxsning o'rni

Siyosatda shaxs muammosi abadiy muammolardan biridir. U faylasuflar va tarixchilar, yozuvchilar va moralistlar, diniy mutafakkirlar va psixologlar qiziqishini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Hozirgi kunda siyosatchilarning ko'pchiligi siyosiy jarayon davomida shaxs omilini o'rganish lozimligini tan olishadi.

Siyosatchining usuli va ta'bi, oila a'zolari va sport turlariga qiziqishlari, doimo ko'pchilik diqqat markazida turadi. Siyosatchini shaxs sifatida bilishimiz bilan birga ko'z o'ngimizda uning siyosiy xarakatlari yashirin zanjiri namoyon bo'ladi. Yana bir misol Paskal siyosatchi shaxsining siyosatga ta'siri haqida gapirib shunday deydi: "Kleopatroning burni biroz qisqaroq yoki biroz uzunroq bo'lganda edi, insoniyatning tarixi umuman boshqacha bo'lgan bo'lar edi".

Shaxsning tarixdagi roli mavzusidagi baxs munozaralar XIX - asrning oxiri XX asrning boshlarida qizg'in tus olib, Tolstoy, Karleyl, Djeyms, Plexanov va Troskiyning qarashlari bilan boyidi. Bu turdagi ko'proq ma'lum bo'lgan asarlardan biri Sidney Xukning "Tarixdagi qahramon" asaridir.

Siyosiy rol - bu siyosiy tizimdagi shaxsning o'rni bilan bog'liq bo'lgan real vazifalar, mavqey, majburiyat va haq-huquqlar majmuasidir

Zamonaviy siyosatshunoslar shaxs itoat qilishi kerak bo'lgan holatlarning mavjudligini, unga yuklatilgan boshqaruv vazifalari (D. Bell, S. Lipset, U, Mur),

barqaror demokratiyani ta'minlash (R. Dal, U. Kornxauzer), o'zaro tenglikka erishish (Dj. Raulz, G. Gens) kabi yangi motivlar bilan bog'lashadi. Biroq bu modelning hamma tarafdorlari uchun umumiy tushuncha, shaxsning davlatga, tashkilotlarga, elitaga itoat qilishda oddiy fuqaroning ishtiroki va uning siyosatdagi roli cheklanganligi haqidagi qarashlar mavjud. Ushbu holatda shaxsning o'zi-o'zining pishib yetilmagan tabiatini jilovlay oladigan, shaxs usti mexanizmlarga ehtiyoji mavjud, boshqaruvning passiv obyektiga aylanadi. Boshqacha aytganda, shaxsning o'zaro munosabatlar tabiati, shaxsiy qiziqishlarda siyosatni harakatga keltiruvchi mexanizm turadi. A. Smit, G. Spenser, U. Godvinning izdoshlari, siyosiy psixologik tizimni harakatga keltiradigan kuch qiziqishlarda deb qarashadi.

“Qiziqish” moduli ijtimoiy va siyosiy tartib turli hil insonlar qiziqishlari uyg'unlashuvining tabiiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun shaxs bostirish kuchi bilan emas, balki umumiy harakatlar orqali o'z foydasiga erishish mumkinligini anglab yetadi.

Bu an'anadagi ahamiyatli postulat, shaxsning siyosiy faoliyatning faol subyekti sifatida ko'rib chiqishi hisoblanadi. Bu modeldan foydalanadigan liberal va neokonservativ nazariyotchilar jamoatchilikni, xokimiyatni markazlashtirish va unga individning itoat qilishining xar qanday shakliga qarshidirlar. Siyosiy tuzum, hokimiyat va ozodlik muammosini ular individual instik kelajakda deb tushunishadi.

“Xatti-xarakat revolyusiyasi” siyosatdagi shaxs muammosini siyosiy psixologiyaning alohida sohasiga aylantirdi. Bu sohani tasvirlaydigan bir necha turdagi tadqiqotlar mavjud bo'lib, ulardan birinchi bu keys-stadiz (case studies) yoki fokusida oddiy fuqaro yoki siyosatchi bo'lgan o'ziga xos individuallar bo'lgan, alohida aniq holatlarni tadqiq qiluvchi sifat tadqiqotlaridir. Individual siyosiy portretlarni yaratishda ishlatiladigan usullar, ularning shaxs sifatidagi ulkan sifatlarini ochishga qaratilgan bo'lib, u ilmiy talablarga javob beradi. Buning uchun ma'lumotlarni tahlil qilishning usullaridan foydalaniladi.

Bu tipdagi tadqiqotning bir nechtasi siyosiy yetakchilarning psixobiografiyasini yaratishga yordam beradi.

Psixobiografiya yo'nalishidagi ishlardan biri E. Eriksonning Lyuter, Gitler va Eleonara Ruzvelt, A. Djordjning amerika prezidenti Vudro Vilson, Ye. Volfensteynning Gandi, Lenin va Troskiy haqidagi asarlaridir. Orasida barchaga ma'lum bo'lgan dunyo siyosatchilarini topsa bo'ladigan portretlar galereyasi tashkil qilingan. Ularning ichida Yelsin, Saddam Husayn va Klinton ham bor. Keys stadizni asosiy maqsadi shaxsning ilk ijtimoiylashuv tajribasidan kelib chiqib va uning siyosiy harakatlaridagi ichki motivlarni ajratib olish orqali siyosatchi shaxsiyati haqida ma'lumot berishdir.

Bu holatda ular siyosatchining hayotiy tajribasini tasvirlash bilan umumiy siyosiy holatdan chetga chiqishadi.

Shaxsning siyosatdagi o'rnini o'rganadigan yo'nalishlardan yana biri agregativ tadqiqot bo'lib, u siyosatchining shaxsiy biografiya faktlarini siyosiy jarayonning tarixiy kontekstida o'rganadi. Mualliflar D. Koks, S. Xyuz, B. Brodi va boshqa tarixchi va siyosatchilar siyosiy voqyealarni alohida shaxslarning harakatlariga emas, shaxsning siyosatdagi tarixiy hodisalaridan kelib chiqqanligiga bog'lashadi. Bu yo'nalish shaxs omilining urush, inqilob, milliy harakter, siyosiy madaniyatga ta'sirini o'rganadi.

Uchinchi yirik yo'nalish esa tipologik tadqiqotlar. Unda siyosiy arboblarni psixologik tushunchalar orqali eng oddiydan tortib, murakkabigacha tasniflashga harakat qilingan. Tasnif uchun, siyosatchilarning alohida xususiyatlari, hatti-harakatlaridagi farqlar, fikr yuritishi shaxslararo munosabatlardagi usullari, qaror qabul qilishdagi o'ziga xosliklar asos bo'lib xizmat qiladi. Eng mashxur tasniflardan biri T. Adorning avtoritarlik tushunchasiga loyihasidir. M.Rokich siyosatchilarni turlarga ajratishdagi belgilardan biri sifatida dogmatizmni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi. D. Trisman ikki asosiy shaxsiy yo'nalganlikni ya'ni: an'analarga va ichki maqsadlarga intilishini asos qilib olgan G. Lassuel va D. J. Barberlar esa siyosiy rolni tasnifning asosi qilib olishgan.

Lassuel "agitator", "administrator" va "nazariyotchi" Barber esa "tomoshabin", "reklama qiluvchi", "qarshilik qiluvchi" va "qonun chiqaruvchi" rollarini ajratuvchi tipologiyalarni taklif qilishadi.

Siyosatdagi shaxs muammosi haqida fikr yuritganda, amerikalik siyosiy psixolog Fred, Grinstaynlar siyosiy jarayonda shaxs omilining yetakchi rolini belgilovchi nazariyani taklif qilishdi. Birinchidan, oldin sodir bo'lmagan mutlaqo yangi siyosiy holatlarda, ikkinchidan, ko'plab noaniqliklar bo'lgan murakkab va bir-biriga zid holatlarda, uchinchidan, turli xil siyosiy qarorlarni taklif qilayotgan turli kuchlar orasida tanlash imkoniyati bo'lganda uning roli ayniqsa ahamiyatli bo'ladi.

Siyosat shaxsiga xos kasbiy va individual xususiyatlar

Siyosatchining professionalligi uning natijasi, siyosiy jarayonlarda ko'rinadigan professional madaniyati darajasini ifodalaydi va u siyosat subyektining taribiy qismini ifodalaydi. Bu jarayonni axborot ta'minotini L. S. Vigotskiy taklif qilgan zonalar qoshidagi nazariya doirasida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Siyosiy faoliyatning texnologiyasi, vazifalari va butun kerakli axborot 4 zonaga bo'linadi.

Birinchi zonaga (o'zlashtirilgan bilimlar) siyosatchi ega bo'lgan yoki mustaqil ravishda o'zlashtira oladigan axborot oqimi kiritiladi. Ikkinchi zonaga esa, shaxsiy professional rivojlanish jarayonida boshqalar bilan birga harakat qilishni talab qiladigan vazifalar kiritilgan. Uchinchi zonaga, siyosiy faoliyatning real amaliyot bilan olib borilishi kiritilgan. To'rtinchi zonaga esa, (potensial rivojlanish) siyosatchi faoliyatini tashkil qilgan informasion faoliyat kiritilgan bo'lib, u bajarish jarayonida o'zlashtirilishi mumkin. Shaxsiy professional rivojlanish siyosatchini siyosiy faoliyatning subyektini sifatidagi o'zini namoyon qilishiga asos bo'ladi. Masalaning murakkabligi shundaki, unga qanday qilib har tomonlama va obyektiv baho berish mumkin.

Buni amalga oshirish uchun mezonlar va ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlanishi kerak. Mezon shunday belgiki, uning asosida baholash amalga oshiriladi, biror narsa aniqlanadi yoki sinflarga bo'linadi. Mezon obyektning rivojlanishdagi o'zgarishlarni ifodalaydi va bilan chegarani belgilaydi. Mezon borliqning aks ettirishning obektiv usulidir. Uning shakllanishi o'rganilayotgan predmetni tahlil qilish natijalari asosida sodir bo'ladi.

Birinchi murakkablik shundaki, predmetni ichki tarkibi bilan birgalikda bizning oldimizda tasodifiy elementlar, munosabatlar paydo bo'ladi. Ikkinchi murakkablik esa predmetning tadqiq qilinayotgan shakli uning haqiqiy tarkibini ifodalamasligidadir.

Siyosatchining professional faoliyati haqidagi bilimlar uning siyosat subyekti sifatidagi majburiyat va vazifalarini amalga oshirish jarayonidagi maqsadga yo'naltirilgan faolligi haqida xabardor bo'lishlikni ta'minlaydi.

O'rta tashlanayotgan maqsad va vazifalarni uning shaxsiy pozitsiyasi va sifatleri bilan mos kelishi uning mansab vazifalarini amalga oshirishdagi mahsuldorligiga kafolat beradi. Shuni yodda tutish, muvafaqqiyatli faoliyat uchun yetarli shakllangan professional bilim, mahorat, psixologik sifatlar, shaxsiy pozitsiyalar va akmeologik invariantlar lozim bo'ladi.

Siyosatchining psixologik xususiyatlari uning ruhiyatidagi barcha tarkibiy qismi ruhiy jarayonlar, xususiyatlar, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma malakalar holatlarning shakllanganligini ifodalaydi.

Siyosatchining psixologik xususiyatlari (sifatleri) shaxsning umumiy psixologik xususiyatlari yig'indisidan iborat bo'lib ular: fikr yuritishning tahliliy-konstruktivligi;

Hissiy barqarorligi; stressga chidamli va siyosiy jarayonlardagi ekstremal (favqulodda) holatlar va omillarga moslashuvchanligi; empativlik va refleksiya qobiliyat; umumiy psixofizik faolligi va boshqalardir. Siyosiy kasblarga aniq differensiya shuningdek tor spesifik tabiatdagi talablarni qo'yildi. Ular shaxsga xos va umumiy sifatlar bilan birgalikda maxsus sifatlarning ham shakllanishini taqozo etadi hamda bu sifatlar siyosat subyektining boshqaruv, kommunikativ, tashkiliy va boshqa vazifa va majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishiga imkon yaratadi.

Psixologik sifatlar siyosat subyektiga o'ziga xos uslubga ega bo'lish va bilim, mahorat, siyosiy jarayonlarda ko'zda tutilgan maqsadlar va vazifalarga erishishga xizmat qiladigan irodaviy sifatlarga ega bo'lishga imkon beradi. Siyosatchi uchun empativlik, ishonтира olish san'ati, muomala va ochiq qayta

axborot ayirboshlashni amalga oshira olish, obro'ga ega bo'lish, mansab mavqeyiga mos bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Bu yerda byurokratizm, chiqisha olmaslik, tazyiq o'tkazish, mizantropiya, negativ (salbiy) holatlar va stereotiplarga qarshi tura olmaslikga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Insonni mas'uliyatli vazifaga tayyorlash muammosi fan uchun ikkinchi darajali emas. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi kishini hayotga va tanlagan sohasi bo'yicha mexnatga tayyorlashdan iborat. Biroq ta'lim muassasalaridan so'ng o'z-o'zini takomillashtirish maqsadidagi harakatlar subyektning mustaqil kasbiy shakllanishida o'ziga xos maktab bo'ldi.

Ko'plab tadqiqotchilarning adolatli ravishda ta'kidlashlaricha, siyosatchi shaxsning kasbiy shakllanishi va o'zini namoyon qilish muammosi fanda yaqindan o'rganila boshlandi va siyosiy psixologiyada esa ilk marotaba ilgari surilmoqda.

Zamonaviy siyosatchilarning shaxsiy-professional (kasbiy) rivojlanishi va o'zini namoyon qilishining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, siyosiy sohadagi professionalizm muammosi mazkur muammo bilan shug'ullanayotgan fanlarning tadqiqot predmetlari sifatida o'rganilmayapti. Unga bo'lgan umumiy qarashlar faylasuflar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Bu muammoning alohida tomonlari esa psixologiya va akmeologiya tomonidan tahlil qilinmoqda.

Psixologiyada professionalizm yoki kasbiy yetuklikning shakllanishida alohida shartlari sifatida iste'dod, umumiy va maxsus qobiliyatlar, irsiy omillar, tarbiyalanish sharoitlari (oila, maktab), kasbga tayinlangan uquv yurtlarida ta'lim olganligi, real muhit, siyosiy faoliyatga qo'yilgan talablar va boshqalar ko'rsatiladi.

Bulardan eng kerakli va asosiysi mahsuldor siyosiy faoliyatni ta'minlashdagi doimiy hususiyatlar xisoblanadi.

Siyosatchining o'zini to'la faollik, yuksak va samaradorlik bilan namoyon qilishida asosiy ta'sirga ega bo'lgan sifatlar yetarli shartlar hisoblanadi.

Birinchi navbatda kerakli shartlarni ta'minlash haqida gapirish kerak bo'ladi. Siyosiy psixologiya bulardan eng ahamiyatlisi sifatida siyosatchining

jamiyatdagi o'rnini, o'tmishi va uning faoliyati hususiyatlari, uning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligiga etibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Rasmiy ravishda bu ma'lumotlarni talab qilish va o'z ishining mahoratni ustasi bo'lgan iqtidorli siyosatchilarni shakllanishiga turtki bo'ladigan muhit shakllanishi qonun va normativ xujjatlar bilan mustaxkamlanishi kerak.

Har bir siyosatchi o'zining imijini yaratishi va bu imij orqali halqda o'ziga nisbatan yaxshi taassurotlarni shakllantirishi kerak. Bu amaliyot g'arb o'lkalarida yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ko'plab siyosatchilar kasbiy imijmeykerlar (imij yaratish bo'yicha ekspert) xizmatidan foydalanadilar.

Psixologik tadqiqotlarda imijning bir qator ahamiyatli xarakteristikalari aniqlangandir. Masalan imij pragmatik bo'lib, u aniq bir maqsad asosida shakllantirilishi kerak. U real bo'lishi kerak ya'ni insonlar qabul qila oladigan darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Samarador siyosiy imijni shakllantirish –uzoq vaqt talab qiladigan va oddiy bo'lmagan, ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan jarayondir. Biroq xar qanday imij bir necha umumiy talablarga javob berishi kerak. Ular:

a) siyosiy imijda yetakchi shaxsning o'ziga xosliklari namoyon bo'lishi kerak.

Bu asosan shaxsni baholashda ko'rinishi kerak.

b) siyosiy imijda “Ota belgilari” (halqning otasi sifatida) bo'lishi kerak.

v)imijning stereotip ko'p planliligi. Imijning murakkab bo'lmasligi kerak, uning kuchi –stereotiplikdadir.

g) ochiqlik. Ochiqlik saylovchilarning lider bilan samarador muloqoti sifatida qabul qilinadi.

d) samarali muloqot. Imij ko'p minglab siyosiy so'zlashuvlar jarayonida shakllanadi.

ye) atrofdegilar. “Qimolni atrofidagi mulozimlari shakllantiradi” ajoyib iborasi mavjud. Bu ibora saylov davri davrida samarador imijni shakllantirish holatida to'laligicha uyg'undir.

i) rasional innovasiya, noodatiy qarorlar qabul qilish.

Siyosatchining shaxsiy qirralari haqidagi yaxshi tasavvurlar saylovchilarga siyosatchining kelgusidagi faoliyatini taxmin qilib fikr yuritishga imkon beradi.

Ayni vaqtda siyosatchilarda ham barcha insonlarda bo'lgani kabi o'ziga xos kamchiliklar mavjud, imij esa ushbu kamchiliklarni yashirishga xizmat qilib, saylovchilar e'tiborini siyosatchining kuchli tomonlariga va yutuqlariga qaratadi. Eng asosiysi esa imij orqali shaxsning hususiyatlarini halqqa tanitishidir.

II.3. Siyosiy jarayonda ta'sir etishning individual uslublari.

Liderning faoliyatida ishlatiladigan individual uslublardan asosiylarini ta'kidlab o'tamiz:

1. Maqtash.
2. Rag'batlantirish.
3. Individual suhbat o'tkazish.
4. Shaxsiy o'rnak ko'rsatish.
5. Ogohlantirish.
6. Jazolash (ishdan bo'shatish).

Psixologik ta'sir bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-xarakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi:

1. **Verbal ta'sir** bu jarayon davomida lider so'zi va nutqi orqali ta'sir o'tkazadi. Nutq bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Lider o'zining ham monologik, ham dialogik nutqida so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, ishchilarga ta'sir ko'rsatishga harakat etadi.

2. **Paralingvistik ta'sir** - bu uni nutqining atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi omildir. Lider nutqining baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiyasi, tovushlari, to'xtashlari, duduqlanishi, yo'tali, nidolari bu vositalarni mohirona ishlata bilishi tinglovchining ichki dunyosini, ongi, tafakkuri, hissiy tuyg'ularini qadriyatlar bilan boyitishini ta'minlaydi, ular mehnatsevarligini oshiradi, ularni raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undaydi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligini oshiradi.

3. **Noverbal ta'sir** (nutqsiz ta'sir). Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pontomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofalar kiradi. Lider tomonidan bu vositalarning barchasini ishlatilishi muloqot jarayonini yanada kuchaytiradi, suhbatda bo'lganlarning bir - birini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Amerikalik olim Megrabyanning tadqiqotlariga ko'ra birinchi marotaba bo'lgan suhbatda taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplar 7%, paralingvistik omillar 38%, noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan.

Liderning saylovchilar bilan suhbat olib borishini samaradorligini oshirish uchun amerikalik olim, notiq, psixolog Deyl Karnegi so'zlarini esda tutishi lozim. Bu so'zlar: "Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" Nemis faylasufi A.Shopengauerning aytishicha "odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang".

Lider faoliyatida saylovchilarga ta'sirni kuchaytirishning vositasi bo'lib ijtimoiy psixologik trening yordam beradi. IPT - bu muloqot vaqtida odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirish vositasidir. Saylovoldi kompaniyasi vaqtida katta auditoriya oldida so'zlash, majlislar o'tkazish, janjalli, konfliktli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa - ta'sir qilinuvchini tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar mafaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oya bo'ladi.

Lider bilan saylovchilar o'rtasidagi muloqotning shakllari.

Lider va saylovchilar o'rtasidagi muloqot ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bugungi yanglanish, mustaqillik sharoitida muloqotning bir necha shakllari mavjud. Shulardan eng asosiy, uchraydiganlarini ko'rib chiqamiz:

1. Avtoritar yo'nalishdagi muloqot. Bu jarayonda liderning roli, mohiyati nihoyatda kuchaytirilgan bo'ladi. Hamma muammolarni u o'zi yakka yechishga harakat qiladi. Boshqalar fikri uni qiziqitirmaydi. U juda talabchan, bu esa hamkasblarning mustaqilligi va ijodiy yondashuviga xalal beradi. Avtoritar ta'sir natijasida lider ishchini doim qo'rqitadi, unga nisbatan dag'al munosabatda bo'ladi. Bu tipdagi lider hech qachon tushuntirish va ishontirish vositalaridan foydalanmaydi.

2. Liberal ta'sir uslublari. Bu tipdagi lider hamkasblarning ishi bilan qiziqmaydi. Ishchilar qanday hohlasa shunday ishlaydi. Tashkilotchi - liberal

ishchilarning ma'suliyatini susaytiradi hamda ish tartibini bo'shatib yuboradi, natijada mahsulot sifati va samarasi zarar ko'radi.

3. Demokratik muloqot. Bu jarayonda tashkilotchi asosiy muammolarni yechishda hamkasblarni bor kuchi, aqli, idroki va irodasini ishga soladi. U qaror qabul qilishda ham boshqalar fikrini, maslahatini ishlatadi. Bu tipdagi boshqaruvda o'zaro hurmat -izzat, mustaqil fikrlash, maqsadga erishish uchun bir yoqadan yondoshish, bir - biriga yordam, tanqid va o'z - o'zini tanqid hukmron bo'ladi. Demokratik liderlik uslubi mustaqillik talablariga to'la javob bera oladi. U butun jamoaning ishlab chiqarishni boshqarishda keng ishtirok etishni ta'minlaydi. Bunda eng muhim qarorlar jamoaviy holatda qabul qilinadi. Jamoaviy muhokama qilish va muvofiqlashtirish shakllaridan, jamoaviy tekshiruv uslubidan keng foydalaniladi. Ish uslubida liderning o'z qo'l ostida ishlovchi xodimlar bilan o'zaro munosabati, insonlar bilan ishlash layoqati muhim rol o'ynaydi. Uning hurmati, obro'si, rahbarligining ta'sirchanligi ko'p jihatdan uning o'z xodimlari bilan qanday munosabatlarda bo'lishiga, o'zini qanday tutishiga, ko'rsatmalarni qanday formada berishiga bog'liq.

Siyosiy psixologiyada lider imiji.

Lider haqidagi guruhiy, ommaviy tasavvur, fikr, obrazni boshqarish psixologiyada **imij** tushunchasiga shunday ta'rif beriladi. "Biron bir konkret shaxsga nisbatan jamoa, guruxning fikri, guruh va jamoa tomonidan bu shaxsning baholanishi, qadrlanishi ularning bu shaxsga bo'lgan munosabatlari shu shaxsning imijini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Konkret inson haqidagi boshqa insonlar fikri asosida imij shakllanadi. Biron bir rahbar yoki oddiy inson haqidagi gurux va jamoaning shakllangan fikri uning imijini vujudga keltiradi.

Shaxs imijiga uning bilimliligi, malaka, ko'nikmalari, ijtimoiy, siyosiy yo'nalganligi, ishbilarmonligi, insonparvarligi, mehnatsevarligi, haqiqatgo'yliги, prinsipiialligi, pok vijdonligi kabi sifat xislatlari kuchli ta'sir etadi. Ota - ona, hokim, sud, prokuror, harbiy xizmatchi, milisiya xodimi, maktab direktori va boshqalar ham o'z imijiga ega.

Psixologik qonuniyatlarga asosan firma, tashkilot, muassasaning imiji lider shaxsining imiji bilan bog'liq. Liderning imiji esa firma va tashkilotlarning imiji bilan chambarchas bog'langan. Lider imijini ilmiy, amaliy o'rganib, bu sifatni lider individualligida shakllantiradigan mutaxassis - imijmeykerni shakllantiradi. Psixologik qonuniyatlarga ko'ra lider haqidagi ijobiy sifat, xislat, bilim, malakalar ishchi - xodim, jamoa va guruh ongida ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ijobiy ta'sir kuchli emosional holatda o'tadi. Ijobiy emosiyalar qoniqish va ishonch his - tuyg'usi bilan sug'orilib, jamoani liderga nisbatan hatti - harakati, munosabatini vujudga keltirib, liderga, rahbarga yaqinlashishiga sabab bo'ladi. Agarda jamoa liderning faoliyati, harakati, bilimlari, malakalaridan salbiy emosional holatga tushsa, bu paytda u liderdan o'zini olib qochishga, undan uzoqlashishga harakat etadi. Bu psixologik qonuniyatlar asosida guruh, jamoaning liderga nisbatan ustanovkasi shakllanadi. Ularning ustanovkalari asosida sizga nisbatan bo'ladigan munosabati va fikri vujudga keladi. Kerakli ustanovkani xodimlarga, jamoaga rahbar berishi maqsadga muvofiqdir. Jamoa esa ustanovka zamirida lider haqida fikr yuritib u bilan muayyan munosabatda bo'ladi.

Bu maqsadni hayotga tatbiq etish uchun hozirgi zamon lideriga psixologik mutaxassis, imijmeyker lozimligini hayot tamoyili taqazo etadi. Imijmeyker liderning mijozini muayan, ilmiy asoslangan testlar asosida obyektiv holatda aniqlab beradi, undagi ekstrovertlik (ichidagini tashqariga chiqara olish qobiliyati), introvertlikni (ichidagini tashqariga chiqara olmaslik qobiliyati), undagi verbal (nutqiy) iqtidorlik koefsentini rivojlanganligi darajasini, frustasion xolatlarda uning reaksiyasini, xarakterologik sifatlari, irodaviy xislatlarini aniqlaydi va kerakli ko'rsatmalar beradi. Mutaxassis liderning ongsiz xolatda bo'lib o'tadigan jarayonlarini va uning odatlari, malaka, ko'nikmalarini ham psixologik jihatdan har tomonlama tahlil etib kerakli xulosalar chiqaradi.

Mustaqillik sharofati tufayli jamiyatimizda yangi tipdagi muomala tamoyili - demokratik munosabatlar barqaror bo'ldi va har bir inson haqidagi boshqa insonning obyektiv, mustaqil fikr yurita olishiga imkon yaratildi, mustaqil fikr

yuritadigan odamlarning taqibiga chek qo'yildi. Bu jamiyatimizning qadriyatini rivoj topishidan darak beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra bizlar o'zimizning xatti- harakatlarimizning 80% ni ongsiz holatda bajaramiz. Masalan: velosiped, mashinani haydagan, telefon qilgan paytlarida. Velosiped haydashda muvozanatni saqlash, diqqatni bo'linishi va barqarorligi, mashina haydayotganda, qo'l, oyoqlar xarakatining avtomatlashib malakaga aylanganligi va hokazolar. Insonning bu holati "avtopilot" ishiga o'xshaydi. Bu jarayonda ong dam oladi, yo boshqa muammolar bilan band bo'ladi. Shuning uchun ayrim vaqtlarda ongdan tashqari xolatlarida qaror qabul etamiz va uni bajaramiz. Bu holatdagi biologik instinktiv faktor sifatida "xavfsirash xususiyoti va himoyalanih xususiyati" ishga kirishadi.

Liderning umumiy imiji, uning kichik imijlari negizida o'sadi. Ularni quyigicha tasniflash mumkin:

1. "**Muhit imiji**" - rahbarning uyi, ish xonasi, avtomashinasi kabilar asosida shakllanadi.

2. "**Gobitar imiji**" (lotin tilida bi abitus- tashqi qiyofa)- shaxsning tashqi qiyofasi- uning kostyumi, makiyaji, sochining ko'rinishi, uzugi va brasleti, chekayotgan sigareyasi, galstugi va boshqalar asosida shakllanadi.

3. "**Predmetlashtirilgan imiji**" liderning tashkilotchilik faoliyati natijasi va tashkilot chiqarayotgan mahsulotlar asosida- rivojlanadi.

4. "**Verbal imij**" - nutq faoliyatiga ko'ra uning nima haqida va qanday so'zlasha olishi, yozishi natijasida o'sa boradi.

5. "**Kinetik imiji**" - noverbal nutqi, nutq jarayonida qo'l oyoq xarakatlari, mimikasi asosida shakllanadi. Haqiqiy lider doim o'z imijini dinamikasini esda tutib, uni o'rganib tug'ri, kerakli, ijobiy tomonga rivojlantirishga ongli ravishda shug'ullanishi lozim, agarda imijini salbiylashuvi vujudga kelsa, uning sabablarini obyektiv diagnostikalab zaruriy chora tadbir, operativ korreksion ishlar olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Liderning o'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

1. O'z-o'zi bilan muloqotda bo'lish (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

2. O'z-o'zini ishonirishlar (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga buysindirish);

3. O'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifatida);

4. O'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul, qadriyatli ustanovkalarni shakllantira olish sifatida);

5. Ichki intizom - o'z-o'zining boshqarishning muhim mezoni har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifatdir.

Aytib o'tilgan o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazaridan o'z-o'zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o'rin tutadi. Bu oddiy qilib aytganda, insonning o'zi bilan gaplashishdir.

Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog regulyativ rol o'ynaydi.

Faqatgina o'z-o'ziga obyektiv baho bera oladigan shaxs, o'zining individualligini to'g'ri tushunadi, o'z-o'zini to'g'ri nazorat etadi, ijobiy munosabat o'rnatib, muloqotga intiladi va o'z-o'zini to'g'ri maqsadga muvofiq tarbiyalay oladi. Bunda bo'lajak rahbarga uning psixologik bilimlari (psixika va ong haqida, psixik holatlar va jarayonlar haqida, shaxsning individual - tipologik sifatleri haqida va boshqalar), malaka va ko'nikmalari vosita sifatida yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Yaqin-yaqinlargacha juda ko'plab olimlar siyosiy psixologiyaning mustaqil fan bo'lishiga shubha bilan qarashgan, siyosiy muammolarni tahlil qilishda psixologiyani "kutilmagan, yoqimsiz" fenomen sifatida qabul qilishgan. Psixologlar esa yangi fanning predmetini aniqlashda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Siyosiy psixologiyaning predmetini aniqlash borasidagi bahs-munozaradagi muhim xususiyatlar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, siyosiy jarayonning psixologik tarkibiy qismini nima tashkil etishi kerak?

Ikkinchidan, siyosiy xulq-atvor, siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyatni o'rganadigan mutaxassislar tadqiqot vositasi sifatida siyosiy va psixologik statistika va sosiologik metodologiyadan foydalanishgan, siyosiy psixologik maxsus metodologik asosga ega bo'lmagan.

Uchinchidan, siyosiy – psixologik muammo nafaqat bu fanning ichida, balki etnografiya, o'lkashunoslik, iqtisod, tarix, sosiologiya va boshqa fanlarga aloqador ishlarda ham rivojlana boshladi. So'nggi yillarda fanlararo oraliqdagi muammolarga bag'ishlangan ko'plab nashrlar paydo bo'ladi. Ularda shaxsning siyosatda rivojlanish qonuniyatlari, siyosiy madaniyatning mamlakat taqdiriga ta'siri, shakllangan tarixiy mentalitet (aql-idrok)ning millat taraqqiyotiga ta'siri muammolari aks ettirilgan.

Har qanday fan kabi siyosiy psixologiyaning ham ilmiy tushunchalari mavjud. Tadqiqotlar tarmoqlararo tabiatga ega bo'lganligi sababli unda falsafa, antropologiya, sosiologiya, psixologiya va siyosatshunoslikka oid tushunchalardan foydalaniladi.

Siyosiy falsafa shaxs va davlatning munosabati fuqaroning siyosatga bo'ysunishi muammosini o'rganishidagi nazariy tushunchalari bilan siyosiy psixologiyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Siyosatshunoslik mazkur soxani siyosiy tizim, siyosiy ishtirok, mojaro, plyuralizm, demokratiya, gegemoniya kabi tushunchalar bilan ta'minladi.

Sosiologiya va ijtimoiy psixologiya siyosiy psixologiyaga metodik usullar, tadqiqot metodologiyasini berdi. Rollar, me'yorlar, qadriyat, qiziqish, yetakchilik, konformlilik, ijtimoiylashuv, siyosiy ijtimoiylashuv, kabi tushunchalar siyosiy psixologiyada ham muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiylashuv - (sosalizasiya) individning ajdodlar tajribasini o'zlashtirish orqali jamiyatga qo'shilish jarayoni.

Resosializasiya – shaxsning bolalikda, o'smirlikda o'rgangan xususiyatlarini qayta o'zlashtirishi.

Siyosiy ijtimoiylashuv qonunlarni o'zlashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarni asta-sekin o'zlashtirib borish, o'z huquqlarini anglash, insonlar va turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishdan iborat jarayondir.

Ijtimoiylashuvning siyosiy omillari-davlat tizimi tipi va tabiatini ifodalovchi sabablar, siyosiy tartib, institutlar, partiyalar va tuzilmalar tizimi.

Siyosiy psixologiya uchun bevosita psixologiya fani tomonidan olingan tadqiqot natijalari ham muhim ahamiyatga egadir: jumladan shaxs psixologiyasi – xulq-atvor motivasiyasi, fikrlash uslubi, qaror qabul qilish uslubi, shaxslararo munosabatlar uslubi kabi tushunchalar bilan siyosiy psixologiyani boyitdi.

O'z navbatida siyosiy psixologiya sosiologiya bilan uzviy bog'liq. Siyosiy sosiologiya siyosatning ijtimoiy asoslari, ommaviy ong xususiyati, jamiyatdagi qadryatlari, axolining siyosiy axamiyatga ega obyektlarga munosabatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ijtimoiy-kasbiy omillarni o'rganadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarga asoslanib siyosiy psixologiyani ilmiy-amaliy integrativ tarmoq deb atash mumkin.

K.K.Platonov psixologiya tarmoqlarini ajratishning uchta mezonini ko'rsatib o'tgan: bular olingan xulosalarning ijtimoiy ahamiyati, o'rganilayotgan psixologik hodisalarning namoyon bo'lish sharti va xususiyatlarning maxsusligi, to'plangan ma'lumotlarning yetarli ekanligi. K.K. Platonov siyosiy psixologiyani ijtimoiy psixologiyaning tarkibiy qismi deb qaraydi. O'z navbatida uning mustaqil fan bo'lishi nisbiy tabiatga ega. Insonning siyosatga munosabati muammosini shaxs psixologiyasining liderlik, motivasiya, "men" - konsepsiyasi, siyosatchining

professionalizmi kabi tushunchalarsiz izohlab bo'lmaydi. Agar siyosiy psixologiyani ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i deb qaralsa, u holda siyosiy jarayonlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari uning predmetini tashkil etadi.

Eng keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, siyosiy psixologiya inson siyosiy xulq atvorining psixologik tomonlarini o'rganadi. Mashhur amerikalik olim M.Doychning fikricha, siyosiy psixologiyaning maydoni siyosiy va psixologik jarayonlarning o'zaro ta'sirini o'rganishdir. Ko'pgina olimlar o'zaro ta'sirning ikki jihatini ochishni taklif etishdi: shaxs va guruh psixologik xususiyatlarining siyosiy munosabatlarga ta'siri, siyosatning fuqaro psixologik sifatlarining shakllanishiga ta'siri.

A.I.Donsovning fikricha, siyosiy psixologiya-“Ijtimoiy subyektlarining siyosiy faolligi” haqidagi, A.P.Nazaretyan fikricha esa siyosiy faollik motivasiyasini o'rganuvchi fandır. A.I.Yuryev siyosiy psixologiyaning obyektiga faqat siyosat sohasida namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan “Hukmronlik qiluvchi odamlar”ni kiritadi. “Siyosatdagi odam”-nafaqat siyosiy psixologiyaning balki boshqa oraliq sohalarning ham o'rganish obyektidir.

Baxs-munozara nafaqat siyosiy psixologiyaning predmeti va obyektiga xususida, balki uning nomlanishi xususida ham mavjuddir. Ba'zi omillar va amaliyotchilar “siyosiy psixologiya” bilan “siyosat psixologiyasi”ni sinonim deb hisoblashadi. D.V.Olshanskiy bu ikki tushunchani tahlil qilib, siyosiy psixika mavjud emas ekan, siyosiy psixologiya uni psixologiyalashtirishga olib boradi. “Siyosat psixologiyasi” esa mazkur tarmoq predmetini ochib berish uchun zarur tushuncha deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, siyosiy psixologiya o'zining predmetiga, obyektiga ega bo'lgan psixologiya fanining tarmog'idir.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T; "O'zbekiston" nashr. 1999. 48 bet.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod – "O'zbekiston" nashr. taraqqiyotining poydevori.- T; 1998, - 64 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., 1998.
4. Beron E. Iгры v kotoгыye igrayut lyudi. M. «Sovershenstvo», 1999
5. Gozman L.Ya., Shestopal Ye.B. Politicheskaya psixologiya. Rostov na D. «Feniks», 1996.
6. Leбом G. Psixologiya narodov i mass. SPb. «Maket», 1995.
7. Stefanenko T., Etnopsixologiya. M. Akademicheskii proyekt. 1999
8. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosaznaniye. - Perm, 1990.
9. Razumovskiy V.G.Razvitiye tvorcheskix sposobnostey uchashixsya. - M., 1975.
- 10.G'aniyev E. Oliy maktab psixologiyasi. -T., "O'qituvchi" nashr. 1997.
- 11.Merlin V.S. Ocherk individualnogo issledovaniya individualnosti. - M. 1986.
- 12.Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodika i testy. - M., 1999.
- 13.Nemov R.S. Psixologiya. - V 2-x kn.1.-M., 1998.
- 14.Psixologiya. Uchebnik. -Pod red. A. Kralova. -M., 1998.
- 15.Andreyeva G. M. Sosialnaya psixologiya. Uchebnik .- M. Aspekt press, 1999-367 b.
- 16.Karimova V.M. va boshqalar. Mustaqil fikrlash-T;1999, 376 bet. Sharq. 2000, 112 bet.
- 17.Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi (uslubiy tavsiyalar) -T.; 2000. 18bet.
- 18.Mayers D. Sosialnaya psixologiya (perev. s angl, -SPB "Piter", 1999 yil -688 bet.)

19. Методы эффективного обучения взрослых. Учебно-методический пособие. (Авт. коллектив). -М. - Берлин: 1998-124 с.
20. Макшанов С.И. Хрыщьева Н.Ю. Психогимнастика в тренинге. -часть 2. СПб, 1993.
21. Практическая психодиагностика. Методики тесты. -М.: 1999.
22. Дуй Д. Психология и педагогическое мышление. -М.: 1998.
23. Панасюк А.Ю. Вам нужен имиджмейкер? -М.: "Дело", 1998.